

Navoiy hikmatlari ma'naviy madad bo'lishini istab

(“Hayrat ul-abror”ning muxtasar sharhi uchun yozilgan so'zboshi)

Akrom Malik ushbu asarning yangi sharhiga kirishib, ulug' navoiyshunos olimlarimiz uchun armon bo'lib qolgan muhim bo'shlqnini to'ldirishga harakat qilgan.

2-bet

«Navoiy – non...»

Halima Xudoyberdiyevan “Navoiy – non” deb boshlanuvchi to'rtligini ilk bor o'qigan kishida hazrat mir Alisher Navoiy shaxsiyatiga, ijodiga jo'ngina baho berilgandek ko'rindi. Ammo chiqurroq mulohaza etilsa, bu mantiq o'zgarishi tayin.

5-bet

Yakka tartibdagi ko'chirmachilik

Bir asarni turli yillarda besh kishi alohida-alohida nashrqa tayyorlasa, besh adabiy versiya yuzaga keladi. Bir asar qanaqasiga besh versiyaga aylanadi?

7-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 3-fevral, chorshanba № 5 (9330)

Xalq ziyolilari gazetasi

Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi

So'z – to'rt sadafning gavhari



“Hayrat ul-abror” o'n to'rtinchchi bobo sharhi

“Hayrat ul-abror”ning muqaddima boblari Alisher Navoiy rahmatullohi alayhning ijod va so'z masalasidagi tamoyillarini ham aks ettiradi. Xususan, o'rganayotganimiz o'n to'rtinchchi bob ana shunday xususiyatga ega. So'z ta'rifiga bag'ishlangan bob quyidagi masalalarni qamrab olgan:

- 1) so'zning koinotdagi, inson hayotidagi, ilohiy haqiqatlarni yetkazishdagi, jamiyatdagi o'rni;
- 2) bayonda so'zning qo'llanish uslublari;
- 3) so'zning qadrini oshiradigan xususiyatlar.

3-bet

Ixtiyoriy obunadan ham baribir yuz o'girdik(mi?)

Prezidentimiz o'tgan yili “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tantanali marosimda “Aytin-chi, o'qituvchi o'z ustida ishlashi, bilim va mahoratini oshirishi uchun qo'shimcha metodik yordamni qayerdan oladi? Albatta, shu sohaga oid kitob va qo'llanmalardan, maxsus pedagogik nashrlardan oladi. Afsuski, biz keyingi yillarda “majburiy obuna” bahonasida ixtiyoriy obunani ham yo'q qildik. Buning natijasida maktab va olyigohlarning o'qituvchi va domlalari o'zlar uchun zarur bo'lgan gazeta va journallardan ajralib qoldi...”, deb ta'kidlagandi. Mutasaddilarga har bir ta'lif muassasasi kutubxonalarini pedagogik nashr-

lar bilan ta'minlash topshirig'ini bergandi. Biroq o'qituvchilar minbari bo'lgan ta'lif nashri — “Ma'rifat” gazetasi uchun 2021-yilgi obunani viloyatlar kesimida tahlil qilsak, o'mingdan ziyod maktabning har biri uchun bir nusxadan ham to'g'ri kelmasligi ayanchlidir. Respublikamizdag'i 10008 ta umumta'lim maktabi uchun umumiy 7500 nusxa obuna bo'lingan. Jumladan, Xorazm viloyatida jami 546 ta maktab bo'laturib, ushbu gazetaga atigi 73 tagina obuna bo'lingan, Toshkent viloyatidagi 891 ta maktab — 134 ta, Andijon viloyatida 764 ta maktab mavjud bo'lsa-da, obuna 151 taga yetgan, xolos.

| Hudud nomi | Maktablar soni | «Ma'rifat» |
|-------------------------------|----------------|------------|
| Respublika bo'yicha | 10008 | 7500 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 727 | 179 |
| Andijon viloyati | 764 | 151 |
| Buxoro viloyati | 536 | 186 |
| Jizzax viloyati | 550 | 452 |
| Navoiy viloyati | 365 | 302 |
| Namangan viloyati | 711 | 410 |

Alisher Navoiy “Oliy majlislar”i



10-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Mamlakatda ko'p masalalar huquqiy normalar orqali emas, aksincha, manfaat va og'zaki buyruqlar bo'yicha tartibga solinadi. Juda ko'p muammolar shunda kelib chiqayapti, menimcha. Qolaversa, huquqiy normalar ham haqiqiy huquq mutaxassislar tomonidan tayyorlanmaydi, qandaydir mujmal, tushumarsiz. Qonun ustuvorligi degan tushuncha faqat darslarda o'tiladi yoki anjumanlarda notiqlarning nutqida jaranglaydi.

Asorbek BOTIROV

Bir tanishim nomimiga kredit olmoqchi bo'ldi. Buning uchun ish haqimni so'radi. Hisobchidan bu bo'yicha hisobtani olib uyga keldim. E'tibor bilan qarasam, ikki oyga mukofot puli deb 800 ming so'mdan yozilgan, qog'ozdag'i oyligim ham qo'liga olnamidan ancha ko'p. Hayron qoldim va hisobchiga qo'ng'iroq qildim. U kishi kulib, "o'zim ham hayron bo'lasiz deb o'ylagandim, lom-mim demay chiqib ketdingiz. E'tibor bermadni, deb indamay qo'ya qolgandim. Yil oxirida chiqmay qolgan pullarni ariym sizga o'xshagan tushunadigan o'qituvchilarga yozib, kelishitirib yuboramiz. Bu pullar hech kimga tegmaydi, o'zi yo'q bu pullar”, dedi. Oldingi hayratim ikki barobar oshdi, nima deyishni ham, qilishni ham bilmay qolaverdim. Bildimki, men “tushunadigan” o'qituvchi ekanman.

Gulbahor BERDIYEVA

Direktor jamg'armasini tashkil etishdan asl maqsad barchamizga ma'lum. Mazzkur jamg'arma hisobidan rag'batlantirish puli oлgan ustozlar bormi oramizda? Bizda shu vaqtgacha olganlarni eslay olmayman. Imi-jimida nimalargadir yoziladi. Mabodo bilib qolgudek bo'lsang bormi, maktab xarajati uchun sarflandi, degan javobni olasan. Qo'l qo'yib bersangiz bo'ldi. Shunchalik ustamon bo'lib ketgani, o'sha yozilgan rag'bat puli sizning kartochkangizga tushmasligi aniq. Buyog' i nima bo'lishi yolg'iz Yaratganga ayon. Turmush o'rtog'i yo'q opa direktor jamg'armasidan 230 ming so'm olibdi, undan ko'ra bermagani yaxshi edi, degandi.

Anvar ESHAYEV



Navoiy hikmatlari ma'naviy madad bo'lishini istab

(“Hayrat ul-abror”ning muxtasar sharhi uchun yozilgan so'zboshi)

□ Hazrat Alisher Navoiyning zamondoshlari o'z kitoblarida ulug' mutafakkir shoir va davlat arbobining xalq ichida mashhur bo'lgan bir necha unvonlarini sanab o'tadilar. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiy o'z tazkirasida shoirni Nizomuddin Amir Alisher deb tanishtiradi. Sultan Husayn Boyqaro ham ul zotni "Hazrati sultonning yaqin kishisi, qudratli saltanat ustuni, mamlakat tayanchi, haq va haqiqat va din nizomi" degan unvonlar bilan ulug'lagan. "Nizom" so'zining lug'aviy ma'nosi "tartib" demakdir.

Insonga nisbat berilganda "namuna" ma'nosini beradi. Hazrat Navoiy Qur'oni karim ko'rsatmalari va Rasuli Akram (s.a.v.) sunnatlariga haddi a'lo darajasida rioya qilgan Buyuk Taqvo sohibi edi. Ul zotning hayot yo'li buyuk so'fiylar ham havas qilgudek haqiqiy Oshiq yo'li edi. Hazratning xulq-atvordan ibrat olmoq, fazilatlarini o'zlashtirmoq, u kishining pand-u nasihatlariga amal qilmoq, e'tiqod va a'mollarini o'ziga nizom qilib olmoq sharaf hisoblangan. Al-haq, ul zot e'tiqodu iymonda komil, ilm-u ma'rifatda yagonayi davron edilar. Shuning uchun ham hazrat Mir Alisher Navoiy Nizomuddin, ya'ni Dinning nizomi deb ulug'langan.

Ul zotning "Hayrat ul-abror" asari boshqa asarlari kabi ayni insонни kamol toptirishga qaratilgan jiddiy asardir. Unda hazratning chuqur ilmi, mutafakkir sifatidagi keng va chuqur tahlili, chin musimon va taqvo sohibi sifatidagi ma'sum qalbi kechinmalar, valiylargo xos mu shohadalari, donishmandona o'gitlari o'z ifodasini topgan. Bu doston "Xamsa"ning boshqa dostonlariga ochqich vazifasini o'taydi. Kimki "Hayrat ul-abror"ni tu shunib o'qisa va ma'nosini usqa, keyingi dostonlardagi syujet va obrazlar hadisi sharifdagi "al-majozu qantaratu-l-haqiq'a" lafziga muvofiq Alloh haqiqati va Koinot nizomi sharhiga borib taqalishini anglaydi.

... Mir Alisher Navoiy "Xamsa"sini tutgib, Sultan Husayn Boyqaroga keltirganda sulton debdilar:

— Ancha vaqtidan beri siz bilan o'rtamizda bir gap borki, shuni bugun hal etmagimiz darkor.

Gap shunda ediki, Husayn Boyqaro hamisha Amir Alisherni o'z piri deb e'lom qilishni istar, ammo amiri kabir esa: "Alloh, Alloh! Nima deyapsiz, biz muridmiz, siz esa hammaga pir!" derdi.

Xullas, bu gal ham biroz tortishgandek bo'lishdi. Oxiri sulton so'radi: "Xo'b, pir kim-u murid kim?" Hazrat Navoiy dedilar: "Murid shuki, pirming murodi nima bo'lsa, muridning ham murodi shu bo'lishi kerak!" Shunda podshoh oq otni keltirishlarini buyurdi... Mirzo dedi: "Demak, siz murid-u men pir bo'ladigan bo'lsam, mening xohish-murodim shuki, mana shu otga minasiz va men otning jilovini tutib, oldingizda yuraman. Saroy a'yonlari oldida noiloj ah-

volda qolgan Navoiyning otga minishan o'zga chorasi qolmadidi..."

Bu naql Hazrat Navoiyning kichik zamondoshi Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqqoye" asaridan. Husayn Boyqaroning ulug' shoirga munosabati o'z tilidan ham bayon etilgan. Sultanning Navoiy ta'rifidagi risolasi "Hayrat ul-abror" bilan birga ko'chirilgan alohida qo'lyozma nusxa holida bizgacha yetib kelgan. Balki uni Sultonning o'zi buyurtirgandir. Bu muhim emas. Muhami, Sultan "Hayrat ul-abror"ni o'qib Navoiyning Alloh Haqiqati, Koinot qonuniyatlari, Inson fenomeni masalalarda valiylargo xos daqiqlik bilan fikr yuritganidan hayajonga tushadi va ta'rifiga til ojiz so'z boyligi hamda ifoda uslubiga ega bo'lgan tengsiz mutafakkir shoir qarshisida turganini anglab yetadi. Uning g'oyat mutaaress bo'lganini quyidagi e'tirofidan ham bilsa bo'ladi: "...va lekin ma'oniy abkoriga bu kunga qadar hech kishi turkona libos kiydurmagan... Va al-haq, chun bu humoyun fursatta va bu ro'zaftun davlatta "Xamsa" panjasiga ilig urdiyu aning itmoniga jild kelturdi.... aning afsonalari ranginlig'in-u abyoti sehroyinlig'in va tarokibi matonatinu ma'onisi latofatin mutolaa qilgan kishi bilgay-yu mulohaza qilgan kishi fahm etgay". Haq gap. Keyingi asrlarda ham har kimki Navoiy "Xamsa"sini o'qiran, uning botiniy mu'nolari ustida mulohaza yuritgan, chuqur izlangan. Chuqurlashgan sari uning talqinlari insонни g'ayb olamiga yetaklovchi yo'llarga olib chiqar, inson idroki ojiz bo'lgan sarhadlar haqiqatini so'ylagandek, o'z vujudi va Mutlaq vujud o'tasidagi munosabatlarga javob topgandek bo'lar, inson amallari, xulq-u atvori, inson kamolot qazovu qadar jodasida iroda erkinligiga bo'ysundirilganini tushunib yetishiga sabab bo'lgan. 1832-yilda nomalum kotib tomonidan ko'chirilgan Navoiy "Xamsa"si so'ngida shunday misralar yozib qoldirilgan:

*Navoiyki, ul jomei sirru jahr...
Aning har so'zidur muammo misol,
Ango yetmagandin xirad nutqi lol.
Jahon ganji har baytidadur nihon,
Ki har ganjidadur nihon bir jahon...*

"Hayrat ul-abror" yurtimizda bir necha bor chop qilingan. Ustoz navoiyshunoslari



tomonidan nasriy bayoni ham nashr etilgan. Ularda asarning g'oyaviy mazmun-mohiyati tarbiyaviy jihatlarini hisobga olib zohiriy sharhlangan. Biroq baytlarning q'a'rida yashirin yotgan g'ayb sir-sinoatlar sharihi hali amalga oshirilmagan edi. Akrom Malik ushbu asarning yangi sharhiga kirishib, ulug' navoiyshunos olimlarimiz uchun armon bo'lib qolgan muhim bo'shiqni to'ldirishga harakat qilgan.

"Hayrat ul-abror" asari tom ma'noda ilohiyot mavzusida bitilgan bo'lib, unda Yaratuvchi ilmi va quadrati hamda komil inson e'tiqodi haqida so'z boradi. Birinchi bobda "Bismillah" ta'rifida Yaratuvchi quadrati, ikkinchi bobda Allohnning yaratuvchilik ilmi mohiyati vasf etiladi. Uning yaratiqlari hikmati to'g'risida mulohaza yuritiladi. "Hayrat ul-abror" dostonining uchinchiligi bobida Allohnning yakalligi, azaliy va abadiyligi, koinotning yaralishidan maqsad, insonnong mukarram etilgani va buning sabablari haqida so'ylanadi.

"Hayrat ul-abror"ning navbatdagagi to'rt bobi munojot janrida bitilgan bo'lib, bizi ularda mutafakkirning tavhid, imyon, olam intihosi va insoniyat qazovu qadari haqida Navoiyning ilohiyotga doir mulohazalarini bilan tanishamiz. "Hayrat ul-abror" dostonidagi keyingi besh bob na't yo'nalishida bo'lib, ularda Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning dunyoga kelishi sabablari hamda Islomiyat oldidagi buyuk xizmatlari aks ettiriladi.

Shorih yozadi: "So'nggi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yuborilishlari insoniyat uchun eng ulkan saodat edi. Ul zot odamzod chan-gakda qolgan fikratiniz ozodlikka chiqarib, tuman va zulmat ichidagi qalblarni nur va yog'du ila najot yo'liga chorladilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam insoniyat tarixida beqiyos, Odam bolasiga berilishi mumkin bo'lgan barcha olijanob

xislatlarning sohibi edilar. Hazrat Alisher Navoiyning masalaga shu nuqtadan turib yondashadi – koinotdan avvalroq Rasuli akram sollallohu alayhi va sallamning nurlari yaratilgani haqida so'zlzagach, ul zotning bolalik holatlarini navras nihonga qiyoslaydi. Navras nihol – go'daklik, o'sish-ulg'ayishning istiorasidir. Bu nihol qirq yilgacha qiyg'os gulladi. Gullari hayo va adabdan iborat edi. Oirq yoshida bu

nihol baquvvat bir daraxtga aylandi, u daraxtda nubuvvat – payg'ambarlik mevasi bitdi. Ya'ni Rasuli akram (s.a.v.) ayni kamolotga yetganlarida Alloh O'z farishtasi Jabroil alayhissalomni yo'llab, ul zotning

payg'ambar ekanlarini o'zlariga va yahiy qildi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bir daraxt kabi o'sdilarki, shoxlari Arshga yetdi – koinotning chegarasida o'suvchi Sidratul muntaho deb nomlangan daraxtdan ham yuksaldi, soyalar esa rahmat o'laroq ikki olamni o'z bag'riga oldi. Bu tamsilning zamirida Rasuli akram (s.a.v.) ni olamlarga rahmat bo'lib kelgan payg'ambar ekanliklari ta'kidlanmoqda. Shuningdek, me'roj kechasi falaklarga ko'tarilishlari bilan bog'liq mo'jizaga ishora ham mavjud.

Mazkur kitob "Hayrat ul-abror" dostonining muxtasar sharhi, matn, nasriy bayoni va lug'atni o'z ichiga oladi. Shorihning diniy bilimlari va dunyoviy tafakkuri Hazrat Navoiyning mukammal sog'gom e'tiqodi qirralarini kashf etish, ma'nolar olamiga chuqur kirib borish va ilohiyot masalalarida Navoiy anglagan Haqiqatlarini his etish imkonini bergan. Shorih Qur'oni karim oyatlari, sharif hadislar va buyuk mutafakkirimizning bitiklaridan iqtiboslar keltirish orqali Hazrat baytlari zamiridagi ma'nolarni tasdiqlashda anche mahorat ko'rsatgan.

Islom ilmiy merosi tadqiqotchilariga yaxshi ma'lumki, hech bir sharh mutlaq yakunga da'vo qilmaydi. Sharhlar tadqiqotdan tadqiqotga o'tib mukammalashib boraveradi. Akrom Malik sharhi ham bundan mustasno emas. "Hayrat ul-abror"ning to'liq sharhlangan ishlari endi boshlanayotir.

Akrom Malik navoiyshunoslikka "Hayrat ul-abror" sharhi bilan kirib kelmoqda. Hazrat Navoiy hikmatlari ma'naviy madad bo'lishini istab, yosh olimlarning keyingi bosqichdag'i izlanishlariga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. "Hayrat ul-abror" asari sharhining birinchi kitobi o'quvchilarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Adabiyot bo'yicha 1-darajalari
Davlat mukofoti laureati,
filologiya fanlari doktori, professor

So'z – to'rt sadafning gavhari

"Hayrat ul-abror" o'n to'rtinchi bobi sharhi

"Hayrat ul-abror"ning muqaddima boblari Alisher Navoiy rahmatullohi alayhning ijod va so'z masalasidagi tamoyollarini ham aks ettiradi. Xususan, o'rganayotganimiz o'n to'rtinchi bob ana shunday xususiyatga ega.

So'z ta'rifiga bag'ishlangan bob quydagi masalalarni qamrab olgan:

1) so'zning koinotdagi, inson hayotidagi, ilohiy haqiqatlarni yetkazishdag, jamiyatdagi o'mi;

2) bayonda so'zning qo'llanish uslublari;

3) so'zning qadrini oshiradigan xususiyatlar.

Sarlavhada shoir inson vujudini osmonga qiyoslaydi. Bu osmonni yoritib turgan yulduz – so'zdir.

Insonning zoti ma'dan kabi. Ma'dan o'zida turli qimmatbaho toshlarni mu-jassam etidi. Inson zotining ma'danidagi javobir – so'z.

Sharq nujum ilmida aytildik, osmonda yulduzlar baxt va baxtsizlik yulduzlar degan ikki turga bo'linadi. Buni Alisher Navoiy "kavkabi sa'd" va "kavkabi nahn" deb ataydi. Koinotda aylanlar yurgan baxt yulduzlar bir fursatda bir-biriga yaqinlashar emish. Bu yaqinlashuvning nomi "qiron". Qiron onlarida tug'ilgan insonlar "sohibqiron" deb atalib, ular ko'pchilikka nasib etmagan fazillatlar, tug'ma salohiyat sohibi bo'ladi, degan qarashlar uchraydi. Umuman, qiron vaqtida Allohnning yozgan taqdiringa muvofiq Yer yuzida xayrlar ishlar sodir bo'lishiga ishonilgan. Alisher Navoiy rahmatullohi alayh ana shu tasavvurlarni istiora o'laroq qo'llab, inson vujudi osmonidagi yulduzlar – go'zal so'zlarning yaqinlashuvini samodagi baxt yulduzlarining qiron holatiga qiyoslaydi. Qiron fursatida xayrlar ishlar yuz bergani kabi go'zal so'zlarning bir sahfaga manjanishi ham chiroylar manzara hosil qiladi. Yoki qimmatbaho durlar, javohirlarni bir joyga yig'ish dilni xushnud qilganidek, dilbar so'zlarini o'zaro muvofig bayon etishning ham xosiyati bor. Bu misollarga suyansak, nazmnning nasrdan ustun jihatlari ko'rinaldi.

Alisher Navoiy matnlarini o'qishda bir nuqtaga diqqat qaratish kerak. Matning ichida shoir "savol – javob" yoki "jum-boq – yechim" uslubini qo'llaydi. Matnichida biz ikki insonni ko'ramiz: bira savol beruvchi, ikkinchisi javob aytuvchi. Savol bizi tushungan va odatlangan ma'nda so'roq ko'rinishida kelmaydi, balki bir aniq muammo, masala o'taga qo'yildi, biz buni "savol" yoki "jumboq" deb shartli atadi; so'ng mazkur masala, muammo hal qilinadi, biz buni "javob" yoki "echim" deb shartli nomladik.

Alisher Navoiy matnlarining zamirida o'ziga xos "suhbat" bor. Bu suhbat "mutakallim" (so'zlovchi) va "muxotob" (xitob qilinuvchi) o'tasida kechadi. Ta'kidlaganimiz – "savol", "jumboq", "muammo", "masala" mutakallim tomonidan tashlanadi. Muxotob esa unga ham naqliy, ham aqliy dalilar keltirib, yechim beradi, o'z javobini, o'z nuqtasini ma'lum qiladi. Eng qiziq'i, bu suhbatda Alisher Navoiy – matnni yozayotgan muallif uchinchish shaxs (g'oyib) o'laroq chetda turadi, suhbatga aralashmaydi, biroq matnning o'tasida yoxud oxirida "Ey Navoiy", "Navoiy" shaklidagi murojaat asnosida u paydo bo'ladi. Bundan tashqari, mutrib, soqiy, mug'anniyaga ham xitoblar mavjudki, bu

xitoblar bevosita muallif, ya'ni Alisher Navoiya tegishli ekanligini kuzatish mumkin.

O'qiyotganimiz bobda qo'yilgan birinchi masala – So'zning mohiyati, so'z nima ekanligi bilan bog'liq.

Alisher Navoiy nazidda, so'z – bir gavhar. Lekin bu gavhami saqlaydigan biror sadaf yo'q. Chunki gavharning Vatani – sadafdir. Balki So'z to'rt sadafning gavhari – havo, o't, suv va tuproqning ham qutichasi, yetti qavat osmon yulduzlar joylashgan burj. Buni qanday tushnish kerak? Alloh taolo Ko'ngilni yaratdi. Ko'ngil Allohnning yaratiqlari bilan tanisharkan, koinotnazar nazar soldi. Ko'rdiki, koinot – bir gulshan, bu gulshanda esa minglab toza gullar barq urib ochilgan. Biroq avval bu gulshan ham, gullar ham yo'q edi. Ular qanday paydo bo'ldi?

Dastlab, Azal tog'idan bir nasim esdi. "Azal tog'i" bir istiloh bo'lib, u Allohnning azaliylik sifatiga ishoradir. Esgan "nasim" Allohnning irodasini bildiradi.

Bu nasimning xususiyati shu ediki, u o'zidan gul sochardi. Gulning bargi va nastarin aynan ana shu nasimning bir nishoni. Hikmat egalari Azal tog'idan esgan nasim ochgan ikki yaproqni yonna-yon qo'yanlarida uning ↗ – "kof" va ↘ – "num" ekanligini bildilar. Bu ikki harfni birligalikda o'qisak, ↗ – "kun", ya'ni Allohnning "Bo'l" degan amri ekanligi oydinlashadi. Butun olam Allohnning biringina "Bo'l" buyrug'i ifodalagan ↗ – "kun" amri ijrosi o'laroq yaraldi. Demak, bu dunyoda neki mayjud bo'lsa, hammasi ↗ – "kun"ning farzandlari. Masalan, "muqayyad" – zanjirband bo'lib, o'z erkidan ayrilgan odamlarmi, ozod bo'lib, hur va erkin yashayotganlarmi – hammasi ↗ – "kun"ning bolalari, xolos.

Koinot ↗ – "kun"ning bolasi bo'lsa, koinot ichidagi hamma yaratiq – odamzoddan tortib qumurqsagacha koinotning "farzandi"dir. Shu tariqa, ↗ – "kun"ning bolalaridan adadsiz avlod tarqaldi. Xususan, inson ham koinot ichida yaratildiki, u ↗ – "kun"ning bolasiga bir bola maqomidadir. Lekin Odamga so'zlash ne'mati ato etildi, shu tariqi so'z insondan tug'ilgan bir "farzand"ga o'xshab qoldi. ↗ – "kun"ning o'zi so'z edi, bu holda u ham validga – ota-onaga, ham valad – bolaga aylandi. Shunday ekan, so'zni qanday ta'riflash mumkin? Chunki so'z so'z bilan vast' etiladi. So'zni boshqacha vasf qilish mumkinmi?

Bu Alisher Navoiy rahmatullohi alayhning "so'zning tarixi" haqidagi qaratashlaridir. Mazkur qarashlar ta'kidlab o'tganimiz – matn ichidagi shartli "muxotob" tomonidan bayon qilingan. Demak, buyuk mutafakkir so'zni, avvalo, Alloh bilan bog'layapti. Allohnning "al-Mutakallim" – so'zlovchi sifati eslanib, insonlarga bu sifat ne'mat o'laroq berilgani aytilyapti. Biroq Allohnning so'zlashi insonlar so'zlanagi kabi emas, Alloh O'ziga, O'z oligliyi. O'z zotiga xos so'zlaydi, u insonlar kabi harfga, tovushga muhtoj emas. Keyinigi masala bevosita ushbu nuqtalar bilan bog'liq.

So'z – jon kabi. Ruh bu jonning qolipi, tanasi. Ruhning ichida jon bo'lgani kabi

tanasida joni bor inson so'zga talabgordir, so'zlashga, so'z tinglashga ehtiyojmand. So'z ko'ngillar ichidagi javhar, og'izlardi gavharni. Tilni po'lat xanjarga qiyoslasak, xanjarni ishlathish uchun, albatta, dasta kerak. Bu dastaning bezagi, ziynati bo'lmish injular so'zlardir.

Koinot gulshanidagi lolaning bargi – til. Lolaning yuziga tomqang qatra kabi tilagi tomchi ham dur kabi so'zdir. So'z o'likni tirlitiradi – so'z bilan inson imyong keladi. So'z bilan inson tanidagi ruh halok bo'ladi – so'z bilan odam imyondan chiqadi. So'z shundayki, u bilan o'liklarni tirlitirgan Iso alayhissalom "jonbaxsh" degan laqab oldi. Shohning so'zi yo adolatiga, yo zulmiga sabab bo'ladi, lekin shoh so'zini bajargan jallod tuhmatga qoladi, ya'ni so'z shu qadar muhim.

Kofirlar tomonidan olovga uloqtirilgan Ibrohim Xalilulloh alayhissalom ham "La ilaha illah" kalimasini aytib, shu haqiqatda sobit turgani uchun o'tga kirdi. Eng ulug' farishta Jabroil alayhissalom esa Allohnning so'zini "ko'tarib yuruvchi" bo'ldi.

Alisher Navoiy rahmatullohi alayh so'zning ahamiyati, uning vazifalarini shu tariqa tushuntirgach, anglashiladi, so'z 1) inson ruhiyatidagi holatlarni yuzaga chiqaradigan bir vosita; 2) so'z namiyatidagi munosabatlarni, boshqaruvni olib borishda muhim qulor; 3) so'z Allohnning tawhidini ifodalagan mo'jizadir.

Uchinchini masala so'zning inson kamolotidagi ahamiyati haqida bo'lib, mutafakkir bunda bir tamsil keltiradi. Tasavvur eting: go'zallikda tengsiz bo'lgan bir parivash biror so'z aytmasa, gapirmasa, uning chirolyi suvrati devordan farsizsizdir. Biroq husni qamar (oy) bilan bahslashmasa-da, labi la'l kabi yondirmsa-da, tannoziqlikni, so'z o'yinlarini, araz va yolvorishni mukammal bajaradigan sanam, shubhasiz, har qanday insonning aqlini oladi. Agar bu so'zga ustalish husn bilan vobasta bo'lsa, albatta, olamga o't soladi. Mazkur tasvirlar – go'zal bir "sanam" istilohi mohiyatani orif insonga ishoradir. Chunki oddiy so'zamol va chirolyi bir qiz Alisher Navoiy aytganligi, "bani Odamga" va "bari olamga" o't sola olmaydi, kuydirmaydi. Odamlarni kuydirib, aqlidan ayiruvchilar – haqiqatlarni bayon qilguvchi fasih nutq sohibilaridir. Alisher Navoiy ta'kidlayaptiki, ilmu hikmat sohibida go'zal nutq, fikrini yetkazish salohiyati bo'limasa, unda joziba, manfaat bo'lmaydi.

To'rtinchini muammo so'zning zamiridagi dard, mung bilan bog'liq bo'lib, Alisher Navoiy o'z she'rlarining g'oyasi, mohiyati haqida ham to'xtalang. Mutafakkir bazmni tasvirlaydi. Bazmda mutrib – kuylovchi dostonlar atyadi. Biroq u naqsh (ijro turi) va amalda (ohang turi) har qancha hunarini ko'rsatmasin, "ahli uql" – aql ahliga bu yoqmaydi, ular buni xush kormaydilar. Basharti, bu kuylar ko'payib ketsha, hammaga malol keladi. Lekin shunday majlislarda Navoiy g'azalidani o'qilsa, u g'azal lafzlarini otashdan darak beradi; bazmda o'tirganlarning g'avg'osini, ya'ni ularga qarab chinakam mung, haqiqiy dard sababli yoqani yirtib, o'zni halok qilish qanday bo'lishini ko'rish mumkin. Demakki, so'zning qalbga yetib borishi, insonlarni ta'sirlantirib, ichki dunyosini larzaga solishi uchun uning mohiyatida mutlaq haqiqatlarga tayangan Dard, Mung bo'lishi talab etiladi.

So'z haqidagi bobning asosiy – so'nggi yo'nalishi nazm, nasr va ma'no to'g'risida bo'lib, unda mutafakkirning so'z qo'llash uslubi bilan aloqador muhim tamalij jihatlarini o'rganamiz.

Alisher Navoiy rahmatullohi alayh so'zning nasri nazmi alohida xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. So'zning yolg'oni e'tiborga arzimasligini aytib, nazmni donolar yuqori ko'rishlarini eslatgan holda qiyidagi tamsillar bilan o'z fikrini yanada ravshanlashtiradi:

1) tishlar o'z o'mida tursa – manzum, go'zal (nazm), lekin sochilsa (nasr), qiyamati yo'qoladi;

2) gullar, daraxtlar bog' ichida tartib bilan ekiladi (nazm) va go'zallik, qadr kash etidi, lekin agar ular tog'da bo'lsa, o'tin qatoriga kiradi (nasr);

3) Robbi G'afur – kechirguchvi bo'lgan Alloh insonlarni ham zohiran bir tafovutli yaratgan, masalan, shoh bir bazm tuzsa, unda hamma o'z maqomida o'tirsia, bu – nizom deyiladi (nazm), lekin may aqni olib, shoh yoniga xizmatkorni chaqirsa, qul bek bilan tortishsa, bu bazmda halovat bo'lishi mumkin emas (nazm);

4) shatranj (shaxmat) donalarini bir joyga to'ksangiz (nasr), u shunchaki, yog'ochi parchalari, xolos; lekin agar u donalar ikki safdan terilsa, she'ming ikki matla'siga o'xshab to'rt misra ko'rinishing keladi; ma'lumki, matla' – g'azalning dastlabki ikki baytidir; bu saflarining ichida turfa muammollar paydo bo'ladi; shoir bu o'rinda muammo janridagi she'rga ishora qilgan – muammo shunday she'ri, uning ichiga biror insonning ismi yashiriladi, she'r o'qiyotgan inson muammoni yechish sirlarini bilsa, unga berkitilgan ismni topishi mumkin, shu kabi fikri saog'iom inson shatranjni mahorat bilan o'ynasa (nazm), muammoni yechib, ismni topgan-dek, g'olib bo'ladi, lekin parishon holda bo'lsa (nasr), mot bo'ladi – yutqazadi; demak, nazmning zamiridagi ma'noni anglash uchun inson sahil fikrli – to'g'ri va sog'iom fikrli bo'lishi lozim ekan;

5) she'mi varaqqa ko'chirgach, uni bir muqovaga tikish uchun sheroza deb atalgan ipakdan (ipdan) foydalanilgan; varaq-larning sheroza bilan tikilishi uni gulga o'xshatadi (nazm), lekin varaqalar sochilsa (nasr), barglari sochilib, xazon bo'lgan gulga aylanadi;

Keltirilgan besh tamsil vositasida ma'lum etilyaptiki, so'zni nazmda – aniq qoidalardan bilan taqdim qilish fazilatdir, nazmda inson aqilini ojiz qoldirishdek bir xususiyat bor. Alisher Navoiy aytadiki, Qur'on – Allohnning kalomida ham so'zlarining qo'llanishida aniq qonuniyat – nazm bor, ilohiy kalom betarib bir shaklda bo'limasligi aniq haqiqatdir; bu qonuniyatlar o'rganilishi natijasida keyinchalik ilmi adab, ilmi lug'at, ilmi sarf kabi fanlarga asos solindi.

So'zni nazm bilan bayon etish – qofiya, radif, vazn kabi tartiblarga amal qilishni taqozo qiladi. Lekin nazmning shakli naqadar go'zal bo'limasini, ma'nodan mahrum bo'lsa, u xush ko'rilmaydi, ahli ma'no uni qabul qilmaydi. Nazmning surati go'zal, mohiyatida esa chuquq ma'no bo'lishi shart.

Alisher Navoiy rahmatullohi alayh shu o'rinda Allohnha murojaat qilib, shunday so'zlar xalqning – odamlarning qalbiga yoqimli bo'lishini so'rар ekan, o'zi ham ana shunday so'zlar aytishga orzumand bo'lib, duo yo'llaydi.

Navoiyni anglash saodati

Hazrat Alisher Navoiy ijodi misli bir bahri ummondirkim, mazkur ummondan baha organ har bir inson qalbi bevosita Haqqa talpinaveradi. Shoир ijodining rang-barangligi, yaratilgan asarlarning yuksak insoniy tuyg'ular bilan yo'g'rilganligi, she'riyati, dostonlari va nasriy asarlarida sharqona axloqiy fazilatlarni targ'ib etgani bilan millionlab adabiyot ixlosmandlarini o'ziga mahliyo qilib kelmoqda.

Hazratning barcha asarlari shaxs va jamiyat tarbiyasiga qaratilgan. Shoир yaratgan doston va qasidalar, ilmiy hamda didaktik asarlari besh yarim asrdan buyon o'z ahamiyatini yo'qtomasdan kelmoqda. Ayniqsa, "Xamsa" epopeyasi badiy falsafiy jihatdan o'zidan oldingi salafulari ijodi orasida o'zgacha jilolanib turadi. Buning asosiy sabablaridan biri turkiy tilda yozilgani bo'lsa, ikkinchidan uning badiyi, falsafiy jihatdan o'ta ta'sirchan va betakror she'riy san'atlarni o'zida mujassam etganligidir. Hazrat Navoiy turkiy xalqlarning barchasi uchun yagona bo'lgan turkiy adabiy til asoslarini, adabiy janrlar onuniyatlarni yaxlit bir tizimga keltirib adabiy til namunasi yaratib bergan, so'z atalmish ilohiy bir ne'matni yuksaklikka olib chiqib, dunyoda bebafo, go'zal turkiy adabiyotni taqdirm etgan shoир sifatida ham man gulikka daxldor.

*Olibmen taxt-u farmoning'a oson,
Cherik tortmay Xitodin zu Xuroson.
Xuroson demakim Sheroz-u Tabriz,
Ki qilmishdir nayi killik shakarrez.
Ko'ngul bermish so'zima
turk jon ham,
Ne yolg'uz turk, balkim
turkmon ham.*

degan faxriyasi mubolag'adan mutlaqo xolidir.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analarini zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyinigi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Hazrat Navoiy nafaqat turkiy, balki forsiy tilda ham salmoqli meros qoldirgan. Uning fors she'riyati an'analarini tiklashga bo'lgan rag'batini Abdurahmon Jomiy shunday e'tirof etgan:

*Zicharxofarinho bar on kilk bod!
Ki in naqshi matbu' az on kilkzod.
Bebaxshid bar forsiy gavhar on,
Ba nazmi dariy durri nazm ovaron.*

(Ma'nosi: Shunday ajoyib naqsh tushirgan ul qalamga falakdan ofarinlar yog' ilsin! Forsiya gavhar, dariy nazmiga nuktadonlar durini in'm etdi).

Alisher Navoiy o'z orzusidagi yetuk shaxsni asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. U komil inson aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lon, jismonan baquvvat, mard va jasur bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ilm o'rganish mashaq-qatlili yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamlari, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini uqtiradi.

Alloma asarlarida adolat, insof, sabr, ezzgulik, saxovat, mehr va muruvvat qanchalik ulug'lansa, kibr-havo, manmanlik va riyo kabi illatlar shu darajada qoralanadi. Bu dunyoda nafsoniy lazzat-larga berilish, o'ziga berilgan umr deb atalmish bebafo ne'matni faqat nafsini qondirishdan iborat deb bilish insonlarni tubanlikka yetaklashi alohida urg'ulangan. Hazrat deyarli barcha asarlarda Qur'on'i karim oyatlari, hadislar, ayniqsa, tasavvufga tayangan.

"Xamsa", "Sittayi zaruriya", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj ul-muslimin" kabi asarlarida, umuman nazm va nasrdagi yozhma merosida islam masalalari bo'yicha ko'p hollarda Qur'on oyatlari asoslangan mulohazalar bayon qilinganini ko'rish mumkin. Navoiy Qur'on'i karim ta'sirida "Siroj ul-muslimin" nomli asar yozadi. Unda shariat ahkomlarini, Ollohnning sakkiz sifatini anglatganidan so'ng, Islam asoslarini nazmda bayon etadi.

Hazrat Navoiy butun hayoti va ijodini Qur'on oyatlari, hadislar asosiga qur-gan komil musulmonning ibratli namunasidir.

Shoir hamisha Qur'on o'qishni va unga amal qilishni komillikning asosiy sharti deb tushunadi:

*Olam eli ichra gar gado,
gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko'ngli aro
hamroh erur.
Qur'onni tilovat etsun ar ogoh erur,
El ko'ngliga chun davo
Kalomulloh erur.*

Alisher Navoiy ijodida ishq — eng muhim mavzulardan biri. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida "ishq zikri-

da" fikr yuritar ekan, uni uch toifaga bo'ladi; birinchisi — avom ishq bo'lib, shoир unga "bu qismning biyikrak mar-tabasi shar'iy nikohdurkim, bari xalo-yiqqa sunnatdor va mubob", deya ta'rif beradi. Bugungi kunda ko'pchilik sevgi, muhabbat deganda mana shu maqom-dagi tuyg'uni angelaydi. Ikkinchisi — xoslar ishq bo'lib, uni "pok ko'zni poknazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin (hayajonidan) qo'zg'olmoq", deya ta'riflaydi. Nihoyat, uchinchisi — "siddiqlar ishqidurkim, alar haqning tajalliyoti jamoliq a mazohir vositasidin ayru vola va mag'lubdurlar".

*Mosivalloh xotirimdin salb qil,
Anda zikringni huzuri qalb qil.*

Ya'ni Olloh, mening qalbimdan o'zingdan o'zgan yodini olib tashla va o'zingning zikringga moyil qil. Bu bayt bilan Hazrat Qur'on'i karimdagidi mashhur bir oyati karimaga ishora qilmoqda: *Ala bizikrillahi tamatin qulub*, ya'ni meni eslaganingizda qalbingiz orom olsin. Yoki boshqa bir baytda: *Oshiqki kom anga ravo bo'lg'ay, oshiqlik anga harom bo'lg'ay*, deydi, ya'ni kim bu dunyoda ishq ilohiyga yettim desa, uning ishq unga harom bo'ladi, chunki bu dunyoda Ollohnning ishqiga yetib bo'lmaydi. Hazrat ijodini, shaxsiyatini o'rgangan ko'plab navoiyshunos olimlarning fikricha, shoир asarlarida tasvirlangan ishq yuqorida biz keltirib o'tgan ishqning 3 turini ham o'zida mujassamlashtirgan deyish mumkin.

Bugungi kunda har bir shaxs, ayniqsa biz, yoshlar har qachongidan ham ko'proq Navoiy ijodiga muhtojmiz. Zero, Hazrat asarlarida tarannum etilgan komil inson tushunchasi hamon o'z dolzarbligini yo'qtmagani.

Eshpo'lat JUMANOV,
tadqiqotchi

"El netib topg'ay menikim..."

Amir Alisher Navoiyning asarlarida Xorazm diyorini o'zgacha mehr bilan tilga oladi. Shu tuproq ulg'aytgan shoirlar — Xo'ja Abdulla Vafoi, Xorazmiy, Xo'ja Saiqiy, Xo'ja Xayriylar haqida ma'lumot berib, ruboiy va g'azallaridan namunalar keltiradi. Ularning asarlarida "Xorazmcha turkiy til" xususiyatlari borligini ko'rsatadi.

"Lison ut-tayr" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida xorazmlik mashhur shayx Najmuddin Kubro haqida batafsal ma'lumotlar keltirilgan. "Sab'ayi sayyor" dostonining yetinchi hikoyasida Dilorom va Xorazmshoh munosabatlari vositasida xorazmliklarning san'at va nafosatga ixlosi zo'r mahorat bilan tasvirlangan.

Navoiy ijodi keyin yetishib chiqqan xorazmlik shoirlar uchun ham maktab vazifasini o'tadi. Oqagihiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O'tardan tortib, to Oshiq Erkingacha Navoiyni ustoz bilib, uning g'azallariga muxammaclar bog'ladilar.

Masalan, Navoiyning "Qolmamish" g'azaliga Ravnaq muxammaclar bog'laydi. Navoiy:

*Ohkim, men chekmagan davron jafosi golmamish,
Ko'nglima ondin rioyer iltimosi golmamish.*

Ravnaq esa:

*"Menga endi sarv ila gul muddaosi golmamish,
Sarv boylik guljabinliklar havosi golmamish,*

deya o'xshatma qildi.

Xorazmlik yana bir shoир Roqim ham Navoiy qo'llagan badiiy san'atlardan keng foydalanadi. Raqimming:

*Ey sabo, holimni qil sarvi xiromonimga arz,
Xasta jonim ishtyoqin ayla jononimga arz...*

matlali g'azalini o'qir ekanmiz, Navoiyning:

*Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimga ayt,
Yig'larimning shiddatin gul bargi
xandonimga ayt...*

matlali g'azali yodimizga tushadi.

Shermuhammad Mumis Xorazmiy o'z zamonasining ilg'or kishisi, olim va shoир sifatida ilm-fan, adabiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. U ham o'z ijodida Navoiy lirikasining badiiy tasviriy vositalaridan foydalangan.

Navoiyning:

*Zavraq ichra ul quyosh sayr etar Jayhun aro,
Axtari sa'di hilol ichra kezar gardun aro*

— matla'li g'azali Munisga ta'sir etib, "Ustida" radifi g'azalida deydi:

*Jilva aylar dilbarim zavrqa da Jayhun ustida,
Yo munur axtar yangi oy uzra gardun ustida...*

Har ikkala holatda ham Jayhun osmonga, kema hilolga, kemadagi qiz yulduzga o'xshatiladi. Demak, bunday muxammalardan biz shoirlar mushoirasini, mahoratda kuch sinash maydonini va o'z salafiq bo'lgan hurmatni, san'atkorlik savyasining o'lichovini anglab olamiz.

Bu durdonalardan ilhomlanib, shuni aytish joizki, Navoiy bobomiz ijodi tuga-nmas ma'naviy buloq, bu buloqning ayrim ko'zlarini hali ham ochilmoqda. Shoirlarning "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Munojot" kabi asarlar keng o'rganilmoqda. Biz Navoiyni yangidan tushunishga, uni butun borlig'i bilan kashf etishga kirishidik. Keyingi yillarda ham o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarimizni qadrlash yillari bo'lishini istardik. Zero, Navoiyning:

*El netib topg'ay menikim,
Men o'zimni topmasam...*

degan insoniylik haqidagi baytlari bugun yanada mazmundor jaranglamoqda.

Nazokat RO'ZIMOVA,
Hazorasp tumanidagi
2-maktabning ona til va adabiyot
fanii o'qituvchisi

«Navoiy – non...»

*Navoiy – non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,
G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj.
Navoiya o'zin ursa, urma kofirni,
Axir, nonga musulmon-u kofir birday och.*

Halima Xudoyberdiyeva

Ulug' donishmand shoir Alisher Navoiy haqida so'z aytmoq ham og'ir, ham oson. Og'irligi shunda, millat quyoshi ("shams ul-millat") sifatida salkam olti yuz yildan beri yashab kelayotgan, nafaqat yashab kelayotgan, balki turkiy ma'naviyat dunyosida yo'ichi yulduzdek chaqnab turgan, aslar davomida "buyuk shoir va mutafakkir" (xalq), "mamlakat ustuni, davlat tayanchi", "ash" or kishvarining sulton" (Husayn Boyqaro), "naziri yo'q kishi" (Zahiriddin Muhammad Bobur), "marjon to'la dengiz" (xalq), "Ajam xalqlari (ulug' amirning) sadosini qulog'iga sirg'a qildi, dunyoning barcha burchaklari bu daryo gavhari ila to'lib toshdi" (Davlatshoh Samarcandiy), "g'azal mulkinning sulton" (Maqsud Shayxzoda), "bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarining avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" (Islom Karimov) kabi yuzlab e'tiroflarga sazovor bo'lgan, obro'-e'tibori kun sayin yuksalib, ijodiy merosi nur misol qalblarni isitayotgan zot haqida ulug'lardan o'tkazib aytib bo'limas...

Hazrat mir Alisher Navoiy dahosi haqida so'z aytmoqning osonligi shunda: o'zbek xonadonida tug'ilgan har bir go'dak borki, esini taniy boshlaganda unga ota, ona, non, suv, Vatan, mакtab so'zлari qaydada o'rgatilsa, shuuriga singdirilsa, havo, suv, non-dek zarur; ota, ona, Vatan, mакtabdeк qadrlı kalomlar sirasidan Navoiy bobomiz degan nom ham o'rın oladi (Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyining nomi barchamiz uchun qadrlı ekanligining ilk sabablaridan biri ham shundadir, balki...). Keyinchalik bu nom qalbimiza iftixor tuyg'usinini indiradigan hazrat Alisher Navoiy bobomiz, ulug' bobomiz, dunyo tanigan bobokalonimiz kabi qator e'tiroflar bilan boyib boraveradi (Yo'limiz tushib Moskva yoki Boku shaharlariда bo'lsak, Yaponianing Soka universiteti hovlisiga borsaks, mir Alisher Navoiy sharafiga qo'yilgan yuskaklikdagi haykallar o'zbek millatiga mansubligimiz – ulug'likka daxldorlar avlodidan ekanligimizga ishora etishi bizni faxrlantirishi tabiiy, albatta). Ha, go'dakligimizdanqo nomi tilimizga tushgan, tilimizdan dilimizga ko'chgan yaqinimiz haqida aytishga hamsha iliq so'zimiz bor...

Alisher Navoiyini pir tutmagan, o'ziga ustoz deb bilmagan yoki ul zotning tabarruk nomlariga, pok ruhlariga murojaat etmagan o'zbek shoir-u shoirasi ni uchratish qiyin. Fikrimiz dalili sifatida aytishimiz mumkinki, zabardast o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva birgina "Buyuk qushlar" to'plamining o'zida Navoiy dahosiga o'ttiz bir marta murojaat etidi. Bu murojaatlar goh bilvosita, goh bevosita tushgan, tilimizdan kuzatamiz. Jumladan, H.Xudoyberdiyeva "Bu o't..." she'rida Uvaysiy ruhiga yukunib yozadi:

*Hazrati Navoiy-ku nazm bobida shoh o'tdi,
Mangu takror o'Imagay endi bu yangroq o'tdi.
Ammo ko'ngil uyida yoqmasdan chiroq o'tdi,
Ammo bu sohir ko'ngil dog' o'tdi-ku, momojon,
Yorab, shoh yigit umri toq o'tdi-ku, momojon.*

Shoira salkam olti asr berida turib hazrat Navoiyining ruhiyatiga kirib boradi. U haqida "shoh yigit", "sohir ko'ngil" kabi betakror tashbehlarni qo'llay turib bir haqiqatini o'z o'mida asl holicha aytadi: "Mangu takror o'Imagay endi bu yangroq".

Ha, dunyoning hech bir burchagida hech bir shoir-u davron, beqiyos iste'dod egasi mana 580 yildan buyon bu ulug' zot qilgan ishlarni takrorlagan emas.

Shoira yurdoshlariga, ayniqsa, yoshlarga yuzlanar ekan, ularning shunchaki kuu o'tkazishlarini istamaydi. Ahli turkiyning har bir farzandi "shu tabarruk zot"ga



o'xshashini yoki "ul ulug'" tafsiflaganidek bunyodkor farhodlar, yurtparvar mehinbonular, shiddatkor shirinlar bo'lishini dildan istaydi. Bu istak shoiraning nafaqat tirikligida, hatto jon jismini tark etganda ham ruhida, ruhiyatida qolaveradi va borliqdan yangi-yangi navobaxshlarni izlaydi...

*Qabrimda ham tunlar turib, sham yoqib,
Orangizdan Navoiyini izlayman.*

Shoira nega o'z qavmlari, eli ichidan Navoiyini izlaydi! Chunki Navoiy "...asarlarli to'lig'icha jamiyat tarbiyasiga qaratilgan. U shaklan go'zal, mazmunan teran va badiiy yuksak tarzda komil inson g'oyasini kuyladi. Uning asarlarida oddiy fuqaroden podshohgacha, dehqon bo'ladimi, talaba bo'ladimi, hunarmandmi, savdogarmi, saroy amaldori yoxud shahzoda, sulton bo'ladimi, bariga tegishli pand-nasihatlarini, hayotda o'zini tutish, qanday axloqiy fazilatlarga ega bo'lish, millatga va davlatga xizmat qilishda qanday prinsiplarga suyanish masalalarida atroflicha yo'l-yo'riqlar berilgan. Yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, bosh o'rinda turadi. Yoshlarining jamiyatga, ota-onaga, ilm olishga, qadriyatlarga munosabatlari hamisha buyuk shoirlarimizning diqqat markazi bo'lgan. Bu o'gitlar bugun ham dolzarb" (Sirojiddinov Sh. Navoiyini anglash – o'zlikka qaytish). Shu bois ham shoira "Navoiy navosi jonlarga indi", deb yozadi.

Statistik ma'lumotlardan ma'lumki, ul tabarruk zot she'r yozishda faqatgina o'zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanmay boshqa tillardan ham unumli foydalanganki, bu buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabi, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardan ham xabardorligidan dalolatdir. Bu borada O'tkir Hoshimovning quyidagi e'tirofi o'rinni: "Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so'z ishlatgan".

Bu kabi dalilar Navoiyining so'z zaxirasini niyomatda ulkan, so'z ma'nolarini anglash darajasi o'ta yuksak, falsafasi pishiq va teran, qoldirgan ilmiy, ijodiy merosi ma'no ostida ma'no ifodalashiga ko'ra tengsiz qudrat kasb etishidan guvhohlik beradi.

Biz – XXI asr odamlari, iste'doddilari, zamon pesh-qadamlari hali Navoiy darajasida yozish u yqoda tursin, ul zotning yozib qoldirganlarini to'larq anglash darajasida shoirning "to'pig'i balandligiga chiqqa olish" baxtiga mayassar bo'lganimizcha yo'q. O'zini bilgan har bir vijdoni o'zbek qatori bu holatdan otashqalb shoir H.Xudoyberdiyeva ham aziyat chekadi va buni "Navoiyining qoni menda" she'ridagi misralarda shunday ifodalaydi:

*Yashayapman goh g'ash,
Ko'krugimni kuydirar bir laxcha cho'g', bolam.
Borimni bor deyman senga, yo'g'im yo'q, bolam,
Navoiyining qoni menda, tili menda yo'q.*

Ba'zan chet tillarini o'za tilimiz hisobiga o'rganish, o'rgatishga zo't berilishi shoirani "dog'laydi".

*Qandayin xush, chet tillarda sayraymiz bugun,
Bu jahonga chiqmoq yo'li – yayramiz bugun,
Tilimizni qayraqtoshda qayramiz bugun,
Navoiyining qoni menda, tili menda yo'q.*

Bugun ahli dunyo "Alisher Navoiy Sharq Renessansining yirik namoyandasini sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rין tutadigan yorqin shaxs" ekanligini to'la-to'kis tan oldi. Bu shoiraning:

*Navoiysiz-ku
jahon yo'q,
Bor hayrat-ku
o'shang...*

mislalarida jo bo'lgan, desak adashmaymiz.

She'r, shoirlar, Navoiy dahosi haqida gap ketganda A.Oripovning gaplarini bu o'rinda eslamay bo'lmas: "She'r, men ayni Sharq she'riyatini nazarda tutyapman, shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir, uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. Bizning she'rimiz shuning uchun bashariyat nazmining gultoji hisoblanadi. Bu nazm zaminida hazrat Navoiydek zotlarning ulug' bir shajaradek qad rostlashiga, bu nazm zaminida shoh ham, gado ham shoir bo'lishiga, bu zaminda valiylar ham baytlar ijod qilganiga sira ajablanmaslik kerak. Zero, bu adabiyot ilohiydir. Uning piri komillari bor. Uning xokdek faqr-u haqir muridlari bor".

O'zbegimning Halimasi turkiy ijodkorlar ichidan yana navoiylar chiqishini Yaratgandan tilaydi. Odatda, biz chorasiz qolganimizda, xavf-xatar ko'nglimizga shubha solganda yoki umrning o'tkinchiligini eslatuvchi ayozli shamol tilib o'tganda Olloho eslal qolamiz: undan o'zimizga, yaqinlarimizga sog'lik, boylik, umr....so'rayveramiz, so'rayveramiz... Shoira esa:

*Oloh, bizlar karvon-karvon,
Mayli bo'z yo kimxob yopgin,
Bir Navoiy top bizlardan,
Yoki bitta Temur topgin,*

deya yolvoradi. Sababki, yurtga maddohlar emas, shuhratparastlar emas, shiori ilmu amal bo'lgan navoiylar kerak. Chunki el, yurt, xalq uchun "Navoiy uzun umrin, o'zin tikkan, bilasiz".

Halima Xudoyberdiyevaning "Navoiy – non" deb boshlanuvchi to'rtligini ilk bor o'qigan kishida hazrat mir Alisher Navoiy shaxsiyatiga, ijodiga jo'ngina baho berilgandek ko'rindi. Ammo chuqurroq mulohaza etilsa, bu mantiq o'zgarishi tayin.

Zero, inson zotining har kuni "buyuk shoir" yoki "mutafakkir"ga, "mamlakat shohi" yoki "shoir"ga, "naziri yo'q donishmand" yoki "marjon to'la dengiz"ga, "g'azalnavis" yoki "avliyo"ga, "ummon" yoki "daryo"ga ishi tushmaydi. Ammo non – inson zotining kundalik ehtiyoji. Bu biologik ehtiyoj irq, din, millat, elat, yosh yoki toifa tanlamaydi, xuddi ma'naviy zarurat kabi.

Demak, kurrayi zamindagi insoniyat uchun ma'naviy jihatdan "Navoiy – non". Hatto "Navoiy o'zin ursa, urma kofirni, Axir, nonga musulmon-u kofir birday och". Xullas, ma'naviy ochlikning davosi ham, ma'naviy yalang'ochlikning libosi ham, ma'naviy qashshoqlikning malhami ham hazrat mir Alisher Navoiy qoldirgan tengsiz ijodiy, badiiy, didaktik merosida.

Dilorom YO'LDSOSHEVA,
BuxDU "O'zbek tilshunosligi"
kafedrasini professori

Dildora YUSUPOVA,
BuxDU "O'zbek tilshunosligi"
kafedrasini doktoranti

"Muncha binoyi xayrkim, ul (Alisherbek) qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay"

"Barcha davrlarning buyuk pedagogi"

Alisher Navoiy nafaqat shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan. Navoiy dunyon tushunib o'tdi. Shu bois, alg'ov-dalg'ov zamonlarda botinan xotirjam yashadi. Zotan, Nozim Hikmat ta'biri bilan aytganda: "Tushunmak — buyuk xotirjamlikdir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrda "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" — qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'plab muallimlar o'za ta'limi loyihamarini yaratdilar.

Men ham o'quvchilarini buyuk bobokalimoniz ijodi, shaxsiyat bilan yana-da chiqurroq tanishirish maqsadida yil davomida olib borilishi rejalashirilgan "Navoiy-ummon" nomli kichik loyiha yaratdim. U yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

Mazkur loyiha orqali o'quvchilar buyuk ajoddalarimizning ilmiy-adabiy merosi bilan tanishadi, ilmiy asarlarini o'qib tushunishni, asar yuzasidan fikrlarini ilmiy asoslab bayon qilishni, mumtoz adabiyotimizning durdona asarlaridagi asl g'oyani anglashni, lug'at ustida ishlashtirishni o'rnatadi. Eng asosiyasi, adabiyotga, kitob o'qishga muhabbatli ortib, ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi, nutqiy savodxonligi ortadi.

Dastavval maktablarda yanvar oyida "Navoiy-ummon" mavzusi doirasida esse yozish ko'rik-tanlov o'tkazilib, oyning biringchi o'n kunligida "Navoiy-buyuk huquqshunos" (esse yozish uchun "Vaqfiya" asari tavsija etiladi), oyning ikkinchi o'n kunligida "Navoiy — mohir tilshunos" (esse yozish uchun "Muhokamat-ul lug'atayn" asari tavsija etiladi), oyning uchinchchi o'n kunligida "Navoiy — barcha davrlarning buyuk pedagogi" (esse yozish uchun "Vaqfiya" asari tavsija etiladi) mavzularida esselar qabul qilinadi.

Fevral oyi uchun "Qalb qo'srini yondirmoqni o'rgandik Navoiydan!" mavzusi doirasida davra suhbat o'tkaziladi. Davra suhbat uchun oyning biringchi o'n kunligida "E'tirof" mavzusi tanlanib, suhbatda Xondamirning "Makorimul axloq", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbab", Boburning "Boburnoma", Mo'minjon Siddiqovning "Navoiy hayratlari", Abdusodir Hayitmetovning "Navoiy lirikasi" asarlarini tavsija etiladi. Davra suhbatida o'quvchi mutafakkirga zamondosh bo'lgan buyuklarning esdaliklari hamda

adabiyotshunos olimlarning alloma haqidagi fikrlari asosida fikr almashadi.

Oyning ikkinchi o'n kunligida "Navoiydan qanotli so'zlar" mavzusida davra suhbat tashkillashtiriladi va Navoiy xazinasidan hikmatli so'zlar suhbatga, fikr almashishga asos bo'лади. Qanotli so'zlar uchun "Xamsa", "Lisonut tayr", "Mahbub-ul-qulub" asarlarini tavsija etiladi.

Oyning uchinchchi o'n kunligi uchun "Navoiyning she'riy bo'stoni" mavzusi tanlanadi. Ushbu mavzudagi davra suhbatda hazrat Navoiyning g'azal, ruboiv ya qit'alar ifodalni o'qiladi, tahlil qilinadi, lug'atlar ustida ishlanadi.

Mart oyi uchun "Xamsani o'rganamiz" mutolaa oyligi tashkil etiladi. Unda o'quvchi "Xamsa" dostonini o'qish bilan birga xamsachilik an'analari va "Xamsa" yozish qoidalari bilan tanishadi. Mutolaa oyligida o'quvchi oyning biringchi haftasida "Hayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", oyning ikkinchi haftasida "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", oyning uchinchchi haftasida esa "Saddi Iskandariy" dostonlarining to'liq matni bilan tanishadi, g'oyasi ustida bahs yuritadi (tavsija etiladi) dan asar "Xamsa" dostoni).

Aprel oyi uchun "Navoiy navosi — qalbar shifosi" mavzusidagi rasmlar ko'rik-tanlovni rejalashiriladi. O'quvchilar Navoiy asarlarini asosida rasmlar chizadi.

"Lison-ut tayr", "Xamsa", "Hiloliya" asarlari tavsija etiladi.

May oyi uchun ijodiy ishlar ko'rik-tanlovni tashkil etilib, o'quvchi "Navoiyga ta'zim" mavzusida devoriy gazeta hamda "Navoiyning adabiy-ilmiy merosi" mavzusida taqdimotlar tayyorlaydi. Ishtirokchidan ijodiy ishlariga o'zgacha yondashib, noyob dizayn, asl, ilmiy ma'lumot va, eng asosiyasi, kreativ fikrash talab etiladi.

Iyun oyida "Navoiy menning tasavvurimda" mavzusi doirasida rasmlar ko'rik-tanlovni tashkil qilinadi. O'quvchi taxminan quyidagi mavzular asosida Navoiyning yoshligi", "Yosh Navoiy — so'zga shaydo", "Navoiyning o'smirligi", "Navoiyning buyukligi uning buyukligida!".

Navoiy shaxsini suradta gavdalantirish uchun Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari va Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlaridagi mutafakkirga beriligan ta'rifidan foydalanishlari tavsija etiladi.

Bu loyiha faqat bir yil emas, har yili o'tkazilib, takomillashtirilib borilsa, maqsadga muvofiq. Zero, Navoiy — buyuk ummon, uning ijodini qanchalik tadqiq etsak, shuncha xazina topamiz.

Nargiza O'RINOVA,
Buvdaya tumanidagi
50-maktab o'qituvchi

"Maqsudim — raiyatning farovonlig'i..."

Bugun biz e'tiqodi, ijodi, hayoti, so'zları, kishilar bilan muomalasi, xulqi, tabiatni ja'miyatda tutgan o'rni orqali besh asrdan buyon tarix tarozisining og'ir pallasini bosib kelayotgan mutafakkir Amir Alisher Navoiy haqida, ta'bir joiz bo'lsa, ul zotning ilm-u ma'rifatga ko'rsatgan homiyligi haqida so'z yuritamiz.

Alisher Navoiy yoshligidan oq ilm va san'at egalarining hayotini vaf qildi. Bor kuchini, imkoniyatini ilmlilar bilan bog'lashga va undan samarali foydalanishga sarfladi. Navoiyning butun hayoti payg'ambar Rasululloh (s.a.v.)-ning "Ilm olish barcha musulmon erkaklar va musulmon aylollar uchun farzdar", degan sahif hadisiga muvofig keladi. Zero, barcha insonlar bilim chirog'i yorug'ida hidoyat manzili tomon yo'l olishlari tayindir. Uzoq yillik sargardonchilikda so'ng Navoiy Hirotg'a qaytgach, otasidan qolgan juda katta mol-mulk va davlatga egalik qiladi. Uning nafaqat Hirotda, balki Sabzavor, Mashhad va boshqa viloyatlarda ham yirik-yirik amloklari, yerlari bor edi. Manbalarning guvohlik berishicha, ulug' amirning zamondoshi G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida keltirilishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shoxruhiy dinorga (Dinor – Eronda chop etilgan mashhur lug'atnomada qayd etilishicha, forsha ikki mustaqil so'zdan tashkil topgan, ya'ni "Din + ar" – shariat keltingan nar-sa ma'ninosini bildiradi. Dastlabki dinorlar hijriy 72-yilda Damashq va zarb qilingan. Dinor og'irlik o'lichov birligi bir misqliga qiyos bo'lib, oltin hisobida 4,235 gram-ga teng) edi.

Bir so'z bilan aytganda, Navoiy o'z davrining moddiy jihatdan eng badavlat kishilari-ifodalagan. X.Sultonovning "Boburiyona" asarida jarib eni 60, bo'y 80 metrdan iborat maydon deb qayd etilgan)ni tashkil etgan.

Bundan tashqari, taniqli olim Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy" risolasida bergan ma'lumotlariga tuyansak, Navoiyning butun mamlakatda ko'pdan ko'p binolar, rastalar, karvonsaroylari va shunga o'xshash ijtimoiy ahamiyatga ega mulklari bo'lgan. Ulug' amirning zamondoshi G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida keltirilishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shoxruhiy dinorga (Dinor – Eronda chop etilgan mashhur lug'atnomada qayd etilishicha, forsha ikki mustaqil so'zdan tashkil topgan, ya'ni "Din + ar" – shariat keltingan nar-sa ma'ninosini bildiradi. Dastlabki dinorlar hijriy 72-yilda Damashq va zarb qilingan. Dinor og'irlik o'lichov birligi bir misqliga qiyos bo'lib, oltin hisobida 4,235 gram-ga teng) edi.

Bir so'z bilan aytganda, Navoiy o'z davrining moddiy jihatdan eng badavlat kishilari-

dan biri hisoblangan. Ammu ul zotning mol-u davlatga nisbatan munosabati shu darajada ediki, daromadining kunlik iste'molga loyiq qismini o'zida qoldirib, qolganini ilm-u ma'rifatga va muhtojlar ettiyogiga sarf etar edi. Illo, Navoiy faoliyatining asosiy muammosi – Vatan, millat, din, ilm-fan, ma'rifatni rivojlantirish bo'lgan. Navoiyning bu olijanob xislati chet ellik tadtiqotchilarining ham e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Jumladan, Amerika olimlari Tomas Lente va Gleniy Louvri "O'n beshinchchi asrning oxirida temuriylar saltanating madanly hayotiga juda muhim ta'sir o'tkazgan Mir Alisher Navoiy... muhtojlarga xayr-u ehson qiluvchilarning mashhuri, shoir va olim edi. Bu haqida Navoiyning o'zi shunday degan edi: "Bu jumladin, o'z maoshingga soyir avomdin (boshqa oddiy kishilardan) birining maoshi (tirikchiligi) o'tguncha issig'-u sovuq daf'i uchun bir turma to'n, dag'iy munga munosib yemakka kone bo'lub (qanoat qilib), qolg'onning ba'zisin ul hazratning mulozamati maslahati uchun, kelish-borishqa va navkar mutallaqalar ulufasig'a va cherik yarog'iga sarf qildim". Fikrimizni tarixchi Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" asaridagi quyidagi so'zlar bilan dalillantiramiz:

"Alisherning bir kunlik daromadi o'n sakkiz ming shohruxiy norid edi va u bu daromadning hammasini xayrli ishlarga sarf etar edi". "Ma-

korim ul-axloq" esa so'zimizni yanada ishonchli manbalar bilan ta'minlaydi: "Shuningdek, tahliq va ishonch arboqlarining qiblasi bo'lgan bu zot (Navoiy) Sohib-qironning podshohligi zamonda atoqla olimlar va hummatga loyiq san'at ahillarining daramalarini ko'tarishda va marta-balarini oshirishda qo'dan kelgan qadar harakat qildi..."

Navoiyning saxiyligi va el-parvarligi to'g'risida Davlatshoh Samarcandiyining tazkirasida ham quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Bu buyuk amir butun davlatning himoyachisi va millatning tayanchidir. U o'z mol-u dunyosining eng toza qismini mamlakatda madrasalar, masjidlar, robotlar va shunga o'xshash foydali binolar hamda shifoxonalar yaratishga sarf etdi. Zahiriddin Muhammad Boburshoh o'zining "Boburnoma"sida ma'lum qilishicha: "Muncha binoyi xayrkim, ul (Alisherbek) qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay". Navoiyning el-u ulusga bo'lgan muhabbati haqida "Makorim ul-axloq" da yana shunday ma'lumotlar keledi: "Shunday voqealar ham ko'p bo'lganki, hazrati sohib-qironning devon kishilari ba'zi bir zarur xarajatlar uchun xalq ustiga zo'r mablag'lar yuklamoqchi bo'lganida xalqning qiynalmasligi uchun va bu hol saltanat tariqlariga buzuqlik solmasin uchun, u mablag'larni (Navoiy) o'z tomonidan to'lab yuborar edi. Shu jumladan biri, bu satrani

yozuvchiga ma'lum bo'lishicha, 906-hijriy yil boshlarida Sultoni Sohibqiron Mozandaron viloyatiga tashrif qilgan edi. Hukumat egasi Amir Muboriziddin Muhammad Valibek janoblari ismiga Hirot shahri va uning atrofidagi aholidan zarur xarajat uchun yuz ming dinor kepaki undirib yet-kazish haqida farmon keldi. Ul janob (Valibek) shu mablag'dan ellik ming dinorini bulukot (shahar atrofi) dehqonlari va chorvadorlарidan undirib, qolganini uy boshiga hisoblash asosida Hirot shahrida turuvchilardan olishni mo'ljalladi. Navoiy esa "Bu fursatda xalq ustiga o'rinsiz pul solishni olyi darajali Sohibqiron davlatiga munosib ko'rmayman", dedi va mazkur mablag'ni o'zining xususiy pulidan berdi.

Shu tariqa Alisher Navoiy hayoti davomida badavlatlikni qanoatlilikka alishgan holda, borlig'ini ilm, fan, san'at va adabiyot rivojiga baxshida qildi. El-u ulusning tinch va totuvligi yo'lida ham moddiy, ham ma'naviy boyligini mammuniyat ilo safarbar etdi va bu ezbegliklari orqali kelajak avlod uchun taraqqiyot tamal toshini qo'ydi. Umid qilamizki, Hazratning ilm-u ma'rifat yo'lida qonbologligi yana uzoq vaqtlar davomida O'rta Osiyo sarzaminiining rivojiga turtki beradi.

Bahromjon XUDOYBERDIYEV,
Erkin Vohidov nomidagi
ijod maktabining
tarix fani o'qituvchisi

Yakka tartibdagi ko'chirmachilik

Bizni buzdi, yo Rab, ul hargizki ma'mur o'imasun.

(Alisher Navoiy)

Yozuvchi va shoirni san'atkor deymiz. Badiiy tarjimonning san'atkorligi shubhasiz. Men matnchi matnshunosni ham (haqiqisini albatta) san'atkor degan bo'lardim. Chunki so'zni san'at asari sifatida idrok etish ham san'at emasmi? Matn yaratuvchi (versiya muallifi) qo'lyozma, toshbosma yoki ilmiy-tanqidiy matndan arab yozuvidan joriy yozuvga ko'chirishda aqli, idroki, uquvi, tajribasi, ilmi — qo'yingki butun intellektual salohiyatini ishga solib asarni nashrga tayyorlaydi. Eng muhimi: bu ishga u kamida biror yil umr sarflaydi. Adabiy versiya (nusxa) yaratgani uchun nashriyot unga mualliflik huquqini va haq beradi.

Bir asarni turli yillarda besh kishi alohi-da-alohida nashrga tayyorlasa, besh adabiy versiya yuzaga keladi. Bir asar qanaqsiga besh versiyaga aylanadi? Gap shundaki, har bir matnshunos o'z imloviy, aqliy, tajribaviy imkoniyatlarga ko'ra so'zlarning asosiy qismi arab yozuvidan to'g'ri o'qishsa-da, bir qismida jiddiy o'zgarishlar nuqsonlar sifatida yuzaga chiqadi va bu nuqsonlar matnshunoslarning har birida har xl bo'ladi.

Chunonchi, Abdurashid Abdug'afurov Shafiqqa Yorqin tuzgan "Daryo dar guhar" (Bobur devoni)dan ko'chiradi:

*Shoh Sultan Uvays bin Mahmud!
Moh Sultan Uvays bin Mahmud!*

("Bobur" "Devon" 1994, 20-bet). Bu versiya Sultan Uvaysni shoh va oy deb tavsiflamoqda.

Hasanxo'ja Muhammadxoa'ja o'g'li ham Sh.Yorqin kitobidan ko'chiradi:

*Shohi Sultan Uvays ban Mahmud!
Mohlidi Sultan Uvays ban Mahmud!*

("Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur" 1996, 27-bet). Bu versiyada Sultan Uvays shohi mato va baliqqa aylantirildi... Ushbu ikki bayt qiyosidan adabiy versiyalar farqlarini aniq tasavvur etish osondir. Keyin keltfiradigan misollaramiz bunga yanada keskinroq aniqliklar kiritadi.

Endi Porso Shamsiyev qo'lyozmadan ko'chirgan adabiy versiyasidan bir misolini "Xamsa"ning 1960-yilgi nashrining "Hayrat ul-abror" dostonidan keltiramiz:

*Lek bu besh rahbada besh korvon,
Bir-biridek har biri bisyor don.*
(47-bet).

"Hayrat ul-abror" dostonining Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 20 jildligi 7-jildidagi kitobda shunday yozubor: "P. Shamsiyev ilmiy-tanqidiy teksti asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, I.Haqqulov" (4-bet). O'sha baytni endi biz A.Hayitmetov va I.Haqqulov yaratgan adabiy versiyadan o'qiymiz:

*Lek bu besh rahbada besh korvon,
Bir-biridek har biri bisyor don.*
(93-bet).

Ushbu ikki adabiy versiya ikki tomchi suvdedir xildir va oldingisidek nuqsonlidir. Mazkur baytning mazmuni:

Lek bu besh sahnada beshta karvon bor. Ularning har biri bir-biridek doni(g'allasi) ko'pdir.

Endi ilmiy-tanqidiy matndan shu baytni o'qiymiz:

*Kim yuzin aylab qaro g'amnok erur,
Shaqqi emaskim, yoqosi chok erur.
Tutmog'ining andin edi xomani,
Kim ul etibdur qaro ko'p nomani.*
(21-bet)

Muhammad alayhissalomming qo'lga calam tutmaganlarini balki Porso Shamsiyev bilmagandirlar. Abduqodir Hayitmetov va Ibrohim Haqqulovlar ham bu ibtidioy diniy haqiqatlarni bilmasmi edilar.

Nega bularning (7-jild) versiyalari 1960-yilgi "Xamsa" matniga muvofiq -u, ilmiy matndan ikki nuqsoni bilan keskin farq etib turidir:

Quyidagi matndagi bir so'z (go'z — orqadan chiqadigan sassiq yel) uchala olimimizni kitobxon oldida bebeb qilgan va Navoiy sha'nini yerga urgan:

"Xamsa" 1960:

*Chekti fig'onkim, bu nedur, yo iloh,
Hotife un berdikim: "Ey piri roh.
Bodiya qat'ig'a durur bir ajuz,
Shavq-u muhabbat yukidin
qaddi go'z.* (57-bet)

A.Hayitmetov va I.Haqqulovlar "Hayrat ul-abror"ning Porso Shamsiyev tuzgan ilmiy-tanqidiy matndan ko'chiradilar:

*Chekti fig'onkim, bu nedur, yo iloh,
Hotife un berdikim: "Ey piri roh.
Bodiya qat'ig'a durur bir ajuz,
Shavq-u muhabbat yukidin
qaddi go'z.* (7-jild, 118-bet)

Bu tashbih-o'xshatish mazmuni rasvo qilgan. Asl nusxada tashbih yo'qdır. Yana ikkala nusxa — bitta adabiy versiya!

"Hayrat ul-abror"ning ilmiy-tanqidiy matndagi o'sha bayt tarzi:

*Chekti fig'onkim, bu nedur, yo iloh,
Hotife un chektikim: "Ey piri roh.
Bodiya qat'ig'a durur bir ajuz,
Shavq-u muhabbat yukidin
qaddi ko'z.* (70-bet)

Bu bayt ham 7-jild adabiy versiyasi "Xamsa" (1960) nusxasi takrori ekanligini, nashrga tayyorlovchilar ilmiy matnga asoslanmaganliklarini daillamoqda.

Tubandagi baytning "toq" va "tog" so'zlarini P.Shamsiyev, A.Hayitmetov va I.Haqqulovlar farq etmaganliklariga taasuf deymiz. Ikkala versiya bir xil bo'lgani uchun baytni bir marotaba keltiramiz:

*Kufr biyik tog'ig'a solib shikast,
Yerga bo'lub past but-u butparast.*
(Xamsa", 1960, 25-bet; 7-jild, 35-bet).

Endi shu baytni dostonning ilmiy-tanqidiy matndan ko'chiramiz:

*Kufr biyik toq'ig'a solib shikast,
Yerga bo'lub past but-u butparast.*
(18-bet)

A.Hayitmetov va I.Haqqulovlar kitobda qayd etganlardek, ilmiy matndan ko'chirsalar edi, "toq" o'rnda "o'z versiyalari"da "tog" deya o'sal bo'lmas edilar. Chunki "toq" ga emas, balki bino toqiga osiladi.

"Fan" nashriyotida chop etilgan, ayniqsa, Alisher Navoiy kitobiga yolg'on ma'lumotni (P.Shamsiyev ilmiy-tanqidiy matni

asosida dostonni nashrga tayyorlagani yozishning nima keragi bor edi?

Ikki ulug' navoiyshunos dahomizning "Yolg'onchi Tangrining dushmanidir" degan gapini ham o'qimaganmikanlar?

"Mukammal asarlar to'plami", 7-jildning noshirlari balki adabiy versiya istilohidan bexabdardirlar? Nahotki ilmiy o'g'irlik olimga sharaf keltirsra?! Porso Shamsiyev oldida ular ikkita gunoh qildilar:

— ustoz nomini o'chirib, P.Shamsiyevning bir yillik aqliy mehnatini o'mardilar;

— hamkasb va shogird bo'laturib P.Shamsiyev tuzgan ilmiy-tanqidiy matndan foydalanmay, 1960-yili nashr etilgan va yuzlab xatoliklari bo'lgan matnni takroran chop ettirdilar; ustoz nuqsonlarini tuzatmadilar.

(Ko'z — bukrit demakdir).

Ushbu holatda ham 7-jild (A.Hayitmetov va I.Haqqulov) versiyasi Porso Shamsiyevning "Xamsa" (1960) matnnini takrorlamoqda. Har bir baytda bittadan so'z ilmiy matndan farq qilmoqda.

Bunday jiddiy nuqsonlar atoqli otlar qatnashgan baytlarda ham mavjud: P.Shamsiyev versiyasi:

*Quydi jahon mulkini chun Yazda Jird,
Ayladi Bahrom tana'umni vird.*
(Xamsa", 1960, 133-bet)

A.Hayitmetov va I.Haqqulov versiyasi:

*Qo'ydi jahon mulkini chun Yazda Jird,
Ayladi Bahrom tana'umni vird.*
(Mukammal asarlar to'plami", 7-jild, 314-bet).

Ikkala versiyaga ishonsak: Porso Shamsiyev ham, Abduqodir Hayitmetov va Ibrohim Haqqulov ham Yazdijird degan podshoh ismimi eshitmagalar. Savol tug'iladi? Ilmiy matn muallifi versiyasi qanaqa? Ilmiy matnda atoqli ot imlosi sahihidir.

Ushbu baytlar qiyosi ham ikkala versiya bitta nusxadan ekanligini daillamoqda.

Quyidagi baytning "Xamsa" (1960) va 7-jildida bixilligi, buning ustiga-ustak P.Shamsiyev va ko'chirmachilarimizning "shon" bilan "sha'n"ning farqiga bormasliklari hamda baytda qofiya yo'qligini sezmaganaliklarini yomon bo'lgan:

*Yo kibi qoshkim bu durur sha'n anga,
Jonin ulus ayladi qurban anga.*
(Xamsa", 1960, 71-bet, 7-jild, 155-bet).

Ushbu baytning ilmiy-tanqidiy matndagi holati:

*Yo kibi qoshkim bu durur shon anga,
Jonin ulus ayladi qurban anga.*
(92-bet).

Natijada 7-jild matnida Navoiy va P.Shamsiyev xotiralariha humratsizlik qilingan.

Biz A.Hayitmetov va I.Haqqulovning ilm va idroklariga nisbatan aytgan tanqidiy fikrlarimizdan voz kechishimiz ham mumkin. Chunki o'g'ri o'g'irlagan qopida nima borgilini bilmaglik mumkin-ku? Biroq ko'chirmachiliklari adabiy-ilmiy plagiatorliklari — fakt! Fakt esa — qaysar narsa. U haqiqat da'yogari va dalilidir.

Vahob RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi

Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi

Ulug' Alisher Navoiy davri bilan bizni qariyb olti asr ajratib turadi. Shunday ekan, daho shoir zamondagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayat bilan bizning davrimizdag'i yashash prinsiplari o'tasida juda katta farq bor. Aniqrog'i, biz buyuk shoir talab qilgan insoniy fazilatlarga deyarli ega emasmi. Boshqacha aytganda, biz bobomiz Hazrat Navoiydan juda olisdamiz. Ammo Alisher Navoiy o'zining hikmatga boy satrallari odamzodiga yaxshi yashash yo'llarini o'rgatish, ma'naviy-axloqiy jihatdan unga yaqin bo'lismiz uchun o'ziga chorlaydi, chorlayveradi. Xo'sh, bu chorlov nimalarda ko'zga tashlanadi?

Kim yomonlig' qilmasa...

Avallo, inobatga olish lozimki, Navoiy o'zi yashab turgan, feodalizmga asoslangan, temuriylar o'tasida ayovsiz taxt talashlari bo'lib turgan murakkab tarixiy vaziyatda, o'zining bermil aqli, tafsaklari bilan temuriy shahzadalarining boshini qovushtirdi. Ularni insof-diyonatga chaqirdi. Husayn Boyqaro saltanatida bosh vazir lavozimida faoliyat yuritib, saltanatning har jihatdan kamol topishi uchun tinimis kursashdi. Qator shahzadalariga murabbiylig qildi. Uning homiyligida bir necha shifoxona, hammom, ko'priy va madrasalar qurildi. El chinchili, osyoishitaligi uchun ulug' shoir o'z osoyoishitaligidan voz kechdi. Shoir bir emas, bir necha bor Haj ziyyaratiga tayyorgarlik ko'rdi. Biroq yorilqa imzo chekkani Boyqaro safarga otlangan Navoiyini turli sabab-bahonalar bilan saroyda olib qolishga harakat qilaverdi. Shunday qilib, bu muvborai ziyyora ulug' shoiriga nasib etmadi.

Shoiring ulkan xizmatlaridan biri turkiy tilini, ya'ni o'zbek tilining nufuzini himoya qilishda ko'rinadi. Haqiqatdan ham fors-tojik tili amalda qo'llanayotgan tarixiy sharoita ona tilini himoya qilish, uning kuch-qudratini asoslash, bu tilda g'azal, doston, hattu "Xamsa" deb ulkan beshlik yozish mumkinligini isbot qilib berish ustan tarixiy jasorat edi.

Navoiy umr bo'yin insoniyati hur va ozod ko'rishni, nafaqat jismoniy jihatdan, balki ma'nava-yuhujiy jihatdan ham odamzdording mustaqil bo'lismi istadi. Shu maqsadda bir necha she'r - rubojo, qit'a va fardilar bitdi. Shuningdek, "Xamsa" dostonlari ichida keladigan hikoyat va masallarda hamda "Mahbub ul-qulub" tanbehlarida ham odob-axloqqa da'vet etiladi. Endi ma'rifat-parvar shoirimizning ayrim hikmatlarini g'oyaviy jihatdan sharhlashtga urinamiz:

Olam ahli bilingizim,
ish emas dushmanlig'.
Yor o'lung bir-biringiza,
ki erur yorlig' ish.

Olam ahli kim? Bu insoniyat, yer yuzidagi barcha odamlar. Shoir butun xalq vakillariga murojaat qilib, dushmanlik yomon illat ekani ni uqtirmoqda. Demak, dushmanlik odam avlodiga yarashmaydi. Ikkinci satrda shuning aksi qalamga olingan. "Yor o'lung" degani do'st bo'ling, ittifoq bo'ling deganidir. Qarang, qanday ulug' vor hikmat. Bu hikmat Navoiyning Toshkentda - Milliy bog'dagi katta haykali peshotqiga bir necha tilda yozilgan. Bu bejiz emas. Bu shior barcha sayyoqlar o'z tilida o'qishi va uqishi uchun turli tillarda yozilgan.

Ilm o'qib amal qilmag'on,
Qariz qazib tuxum solmag'on.

Baytda ilm o'rganishga va unga qat'iy amal qilishga da'vet etilmoqda. Ilm - insoniyatga ikki dunyo saodatini in'om etuvchi ne'mat bo'lib, u haqda Sharq abdyotiota bir necha naql-rivoyatlar yuzaga kelgan. Alloma shiorlar ilm o'rganishni targ'ib qilish bilan cheklanmaydilar, unga jiddiy amal qilishni

ham talab etadir. "Ilmi yo'qning ko'zi yu-muq" deydi. Unda ham mutafakkir shoir maqsadiga yaqin g'oya ilgari surilgan. Shoir aytmoqchiki, ilmiga amal qilmagan olim, yer ag'darib unga tuxum (urug') tashlagagan dehqonga o'xshar. Avvalo yerni ag'darma, ag'dardingmi, unga urug' qadashni unutma.

Ilmi kim vestiyati joh etar,

O'ziniyu xalqin gumroh etar.

Bu hikmat ham yuqoridaq hikmatning mantiqiy davomidir. Shoir aytmoqchiki, qaysi olim ilmidan boylik to'plash vositasi sifatida foydalansa, o'zini ham, xalqini ham gumroh etadi, qiyshiq yo'lg'a boshlaydi.

Quyidagi hikmatda bizarqan qilishga tushvush qilib, yaxshilik qilishga qurbingiz yetmasa, yomonlik ham qilmang, deya o'git beradi.

Chunki shoir nadzida yomoniq qilmaslik ham jamiyat uchun yaxshilik qilish bilan barobar edan:

*Yaxshilig' gar qilmasa,
bora yomonlig' qilmasa,
Kim yomonlig' qilmasa,
qilg'oncha bordir yaxshilik'.*

Mana bu hikmat xalqimizdagi "Meva-li daraxtaq tosh otildi", degan naqlini esga soladi:

*Necha samar sochmoq esa shox ishi,
Ko'prak otar tosh anga tergan kishi.*

Navoiy inson dunyoga keler ekan, kamolotga intilib yashashi lozimligini uqtiradi. Buning uchun ilmi, hayovi va albatta biror kasb egasi bo'lishi lozim. Kasb egasi bo'lganida ham shu kasning ustasi bo'lsin. O'tramiyo bo'imasin:

*Kamol et kashkum, olam yuidin,
Senga farz o'lmag'ay g'annok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biyayn
Erur hammondin noplak chiqmoq.*

Olam uyi - dunyo. G'annok - g'amgin, qay'ul degani. Notamom - ishsiz, maqsadiz ma'nosisda kelgan. Biyayn - aynan, xuddi demakdir. Boshqa so'zlar izohlatlab emas. Ya'ni, buyuk shoir aytmoqchiki, tug'ilib, notamom o'tish, hammomga kirib yuvinmay chiqish bilan barobardir:

*Sham yoritar uyning ich-u toshini,
Uy egasi ko'prak uzar boshini.*

Bu yerda ham shoiring falsafiy-ma'rifiy g'oyalari aks etgan. Sham o'zi kuyib, egasining uyini ravshan qiladi. Uy egasi esa uning boshini qaychilab, qisqartirib boraveradi. Inson ham o'z mehnati bilan jamiyat ravnaqiga hissa qo'shadi. Biroq kundan kun umri qisqarib borayotganiga parvo qilmaydi. Hayot shunaqa. Umr mazmuni shunday.

Demak, mutafakkir shoiringimizing hikmatga boy merosini o'qish, o'rganish va bugungi turmushga tabbiq etish har bir insonning mas'uliyati vazifasi, ehtimol, burchidir.

Abdurahmon PIRIMQULOV,
filologiya fanlari nomzodi

"So'z avval, jahon esa so'ngra"...

Hazrat Navoiy o'zbek tilining niroyatda boy ekanini «Muhokamat ul-lug'atayn» asari orqali nazariy jihatdan isbotlagan, o'zbek adabiy tilining taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymodir. Ammo ul zot bu bilan qoniqmagan. Asarlarida til, lison, nutq, til birliklari xususida fikr yuritib, tilning barcha vazifalarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Xususan, «Xamsa»ning besh dostonida ham so'z ta'rifiga maxsus boblar ajratilgan va har birida tilning ma'lum bir vazifasi, qirrasi ochib berilgan.

Alisher Navoiy tilning paydo bo'lishini olam paydo bo'lishining avvali deb bilidi: Go'zal ma'no unsiz bejilva, yalang'ochdir. U qalb hujrasida ta'zim qilib, o'zini o'sha hujraning xazinasiga yashiradi va hech kim uning izini ham sezmaydi, el uning ma'noidan xabar topmaydi. Idrok ahliga bu sirlar noma'lum bo'lib, undan bexbardirlar. Agar kamolotli xohish bildirib, ma'no durriga inilib, so'z libosini, ya'sha, uzozlashtiradi Alisher Navoiy sharobni "ummul xabois", ya'ni barcha yomonliklar, falokatlar onasi deb bilgan. Tasavvufi istiloh sifatida esa ilohiy ishq, ma'rifatning avji qiyomi, ilohiy jamol tajallisi sifatida ulug' laydi:

*Ey Navoiy, dayr piri tutsa
may lojur'a ich,
Fikri qilmakim, sanga yetkay
malatol yo farah.*

Mazmuni: "Ey Navoiy, dayr piri senga may tutsa, qultumlasdan, bir sifqorishda ichg'in. Bu hol senga malolat yoki farah keltilishini ham o'ylama".

May mavzusi Umar Hayyom, Hofiz ijodi kabi Alisher Navoiy asarlarida ham salmoqli o'ringa ega. May madhi, uning ulug' lanishi, avvalo, o'z tub mohiyatiga ko'ra, hayotni sevish, Alloh vasliga erishishni ulug'lashdir:

*Soqyo, ko'z birla ko'nglumi
qaro qilmish xumor,
Kelki, bu uylarni may
xurshididin ravshan qilay.*

May - shoir uchun birdan-bir ilinj. Ak-sariyat hollarda lirik qahramoni o'z za'fidardi ga mayini malham deb biladi:

*Alam yetkach, Navoiy, dahridin
may bil oning daf'i,
Qabul etkan kishiga basdurur
olamda bu bir pand.*

Ijodkor mayini - ilohiy ishqni ko'ngillarga joylamoqchi. Allohning barchaga barobar ekanligi, barcha ishg'a qodirligi, dardmand kishiga ham davo berishini ta'kidlaydi:

*Seni, ey mug'bacha,
maxmurlig'atn asrasun tengri,
Agar bir jomi may birla ijoj
etsang xumoring'a.*

Mazmuni: "Ey mug'bacha, agar bir jom may bilan mening xumorimni qondirsang, seni tangri mayga zor bo'lishdan (maxmurlikdan) asrasin".

Alisher Navoiy may ichishni xohlaysotgan qadah oddiy emas. Uning tubida Allohning aksini jilva qiladi. Bu holatni yanada rivojantirigan shoir bunday deydi:

*Zuhd aro har mushkulikim
bor edi, ey faqih,*

*Jomg'a may quyg'och o'q,
barcha ayon bo'ldilo.*

Zuhd — tarkiduno etgan, dunyoga tilifot etmasdan toat-ibodat bilan kun kechiradigan kishining, zohinding yo'li. Navoiy mazkuz bayda o'zingin zuhd yo'lida ekanini, ilohiy jilvina faqat xayru va orzu qilayotgan paytda cheksiz nurlar jilva qiladigan mazhar, ya'ni jomga may quyligach, mushkul oson bo'lib, Alloh jamoli nasib etganini ta'kidlaydi.

Xullas, buyuk so'z sohibqironi Alisher Navoiy asarlarida til va nutq, til birliklari wa nutq birliklarining mazmuz-mohiyati ochib berilgan bo'lib, bu fikr-mulohazalar sotsiolingvistika, psixolig'vistik, pragmalingvistik, lingvopoetika, til falsafasi, nutq madaniyati fanlari nuqtai nazaridan o'z tadqiqini kutmoqda:

Mumtoz adabiyot sirli, sharh-u tahliliga hamma ham jur'at eta olmaydigan xazinadir. Bugun men oddiy bir o'qituvchi sifatida hazrat Alisher Navoiy ijodida keng o'rinn berilgan may mazusidagi baytlar tahlii orqali sirli olamning bir chetiga astagina mo'ralashga jazm etdim.

Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda...

Avvalida bir narsani ta'kidlamoq lozim. Navoiy tariflagan may insoniyat boshiga qora kunlar keltiruvchi ichimlik emas. Ulug' bobomiz ichkilikbozlikni tattiq qoralaydi. Hayotiy dalillarga suyanadigan bo'lsak, o'z do'sti, podsho Husayn Boyqaro va o'g'il larining mayga ruju qo'yishganidan zorlanadi. "Sab'ayi sayyor" dostonida tush ko'rish lavhasi orqali shoh Bahrom tilida zamon podshohini ogohlantiradi Alisher Navoiy sharobni "ummul xabois", ya'ni barcha yomonliklar, falokatlar onasi deb bilgan. Tasavvufi istiloh sifatida esa ilohiy ishq, ma'rifatning avji qiyomi, ilohiy jamol tajallisi dori qo'shishni iltimos qiladi:

*Bazm ichra Navoiy ko'p
yig'lar esa, ey soqiy,
Hush eltuvchi doru
jomig'a aning chayyat.*

Shoir o'z oshiqlik o'tiga aksariyat hollarda mayni davo sifatida keltiradi:

*May ketur, ey mug'ki,
yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bul'ajablarkim, bu eski
dayr xuffoshindadur.*

Bu baytda "eski dayr" — eski mayxona, "xuffosh" esa unda in qurgan ko'rshapalakdir. Lirik qahramon o'zini ko'rshapalakka o'xshatadi. Allohning 99 sifatidan biri — "al-aliyyu". "Buyukligini anglashdan butun xalq o'zij" bo'lgan Zotning mohiyatini oshiq ham bilolmaydi. Hatto Iso alayhissallam ham Alloh sirlaridan voqif bo'la'magan. Lirik qahramonimiz shu darajada sabrli, qanoatliki, may quyqasiunga kifoya qiladi:

*Mayxona aro kirdim oshuftahol,
May istarg'a ilgimda sing'on safol,
Bir telba oshiqman uyudan arat,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.*

Semurg'day yurt kezib topdim o'zimni,
Qay'uga bosh egmai topdim to'zimni,
Mehr tandiriga yopdim so'zimni,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.

Singan safol tutdim,
xummor mayparast,
Majnunday o'zimni unutganim rost,
Bir telba oshiqman uyudan arat.

Chora istarmen, vale bechoralig
ko'nglum tilar...

Aziz kasbdoshim, siz-u biz qo'lni qo'lg'a berib buyuk ajdodlarimiz merosini sevib o'rganaylik va yosh avlodni sevishga o'rgataylik. Bugun ko'zlar qachqab darslarimizni jon qulog'i bilan tinglayotgan o'quvhilarimizning ko'ngil ko'zlar ochilsin!

*Baxtli malikaman — go'yoki Shirin,
Fosh etaman barcha olamlar sirlar,
Dunyo — manim, bitta kaftida yashash,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.*

*Ishq abadiy o'tdir, samadar — bardosh,
Laylimas, Qays o'zi
mening-chun darddosh,*

*Sel bo'lib oqadi botin hamda tosh,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.*

*Angladim Haq mulki — Ka'ba ko'ngilni,
Ko'zimga surtam anazalim — gitni,
Va ko'proq sevaman Masihim — tilni,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.*

*Go'yo nigohimda nur olib qoyosh,
Chamanga aylanlar dunyo — tog' — tosh,
Farishalar bari menin-la sirdosh,
Navoiyni bir bor qo'lg'a olganda.*

*Singan safol tutdim,
xummor mayparast,
Majnunday o'zimni unutganim rost,
Bir telba oshiqman uyudan arat.*

*Chora istarmen, vale bechoralig
ko'nglum tilar...*

Ziyoda MAMAJONOVA,
Kosonsoy tumanidagi
28-maktabning
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi



Hazrat Navoiy

Ulug' xalqning qalbiga yaqin,
Millat sha'ni, millat fidosi,
Buyuklikda yo'qdir qiyosi,
El ishqida fikr-uzakosi,
Millat faxri, millat dahosi.

Maqtovlarga muhajo'mas o'zing,
Maqtovlarda balanddir so'zing,
Sha'ning ulug', shoning muhtasham,
Buyuklikda yo'qdir qiyosi,
O'zbek elin buyuk dahosi.

Avaz SODIQ

Alisher Navoiy "Oliy majlislar"'i

O'zbek adabiyoti tarixida Husayn Boyqaro huzuridagi oliy majlislar (Xurosonda adabiy majlislar ana shunday nom bilan atalgan) kabi shoirlar sulton Alisher Navoiy dargohida ham xuddi shunday she'riyat kechalari tashkil etilgan.

Navoiyning adabiyot ahliga ko'sratgan g'amxo'rligining samarası o'laroq, Mavarounnahr va Xuroson ziyorilarini uning atrofida jam bo'ldilar. Uzoq-yaqindan to'plangan shoirlar Navoiyning she'riy majlislarini bezata boshladilar. "Mahbub ul-qulub"da Navoiy o'zi tashkil etgan ana shunday majlislarni tilga oladi: "Goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim... Ulug'kishilarni va yuqori mansab egalarini humrat va ta'zim yuzasidan mehmon qildim va ba'zan shodlik bog'ida ziyofer tuzib, ...xonanda va sozandalarning bazu-u taronalaridan bahramand bo'ldim" [Navoiy. 1983.7]. M.Imomnazarov "Buyuk siymlar, allommalar" kitobidagi Navoiyga bag'ishlangan maqolasida adabiy anjumanlarni ma'rifiy suhabatlar deb ataydi: Alisher Navoiy o'z huzuriga tez-tez she'r, ilm va san'at ahlini chorlab, ma'rifiy suhabatlar uyuşutirib turar, yosh iste'doddalarni tarbiya qilib, ularga sharoit yaratardi. Xondamir, Behzod, Vosifiy va o'nlab boshqa iste'dod egalari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy huzuridagi bunday kechalarda qatnashish hammaga ham nasib etavermagan: "Olimlarning ulug'lari qachonki, uning oliy darajadagi yig'inlarida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishsa, uning samimiy qalbi sirlari sahifalaridan foydali marvaridlar yig'ishar, fozillarning mashhurlari qachonki, ul hazrat o'tirgan muborak gilamning bir chetida o'tirish sharafiga ega bo'lishsha, nozik fikrlar va nafis so'zlar gavharlar terishardi" [Xondamir. 2015.33]. Davlatshoh Samarqandiy ham yugoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda "fozillarning maqsadi uning oliy majlisiga yeytishishdir... Uning ham-suhbatlari xushta'b, fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan boshqasini istamas, og'ir tabiatilar uning nazariiga yengilitak bo'lib ko'rinar, balki noahilar uning latif majlislariga kirolmashilar..." [Ahmedov.1985.15] deb ta'kidlagan. Davlatshoh Samarqandiy haq. O'z davrining ziyorilar, adabiyot ahli Navoiy huzuridagi yig'inlarda qatnashishga harakat qilishgan. Adabiyotshunos Atoullohu Husayniy ham o'zi yaratgan yangi she'riy san'atni, ya'ni "uning har misrasi bila qo'shsalar, o'shal she'r dan bir bayt hosil bo'lur, lekin ma'no va qofiyaga xalal bermaydigan" usulni Navoiy nazardin o'tkazish niyatida edi. "Mundog bir san'atga e'tibor qilish ko'pdan beri xotirimda yunab yurar, ammo oni aytish yo'li bandaga kelmas erdikim, hazrati xudovandgor (Navoiy) majlisiga erishmak navbat yetti va yaqinlik paydo bo'ldi. Ul fikri izhor ettim. So'zim tugagach, ul hazrat (Navoiy) davotu qalam tiladilar va badihatan bir rubo'yaytilar:

Ro'i tu zi ruxi osmoniy xushtar,
Qaddi zi sarvi bo'stoniy xushtar,
La'li tu zi obi zindagoniy xushtar,
Nutqat zi hayoti jovidoni yushtar.

(Tarfimasi: Sening yuzing osmon yuzida (quyoshdan) yaxshiroq. Qadding bo'ston sarvidan yaxshiroq. La'ling hayot suvidan yaxshiroq; Nutqing adabiy hayotdan yaxshiroq.)

...Aksari zamona fozzillari-yu atoqli xushta'blardan bo'lmish majlis ahli lol goldilar va taajjub barmog'in tishlarig'a oldilar" [Isoqov.2014.222].

Adabiy majlislarning asosiy xususiyatlardan biri bu, albatta, unda birinchi navbatda mushoira, she'rxonliklara tashkil qilinganligidir. "O'tmish adabiy jarayonida mushoiralalar muhim o'rin tutadi, yana ham aniqrog'i, o'tmishda adabiy jarayon ko'proq mushoira (she'r majlisi, shoirlar anjumanı) shaklida echang. Mushoiralarda shoirlar o'z asarlari taqdim etish, ular haqidagi o'zgalar fikrini bilish, shuningdek, boshqa shoirlar bilan ijodiy fikr almashish, hamkorlik qilish imkoniga ega bo'lganlar. Mumtoz adabiyotimizdagagi bir qator janrlar, ayrim she'r san'atlarining yuzaga kelishi bevosita mushoiralalar bilan bog'lanadi: ularning bir qismi mushoira ishtirokchilarining bir-birlariga javob aytishi (taazmin, taxmis), boshqa bir qismi she'riy musobaqa (muammo, chiston, badiha) ruhi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Mushoiralalar dastlab san'at va adabiyotga mehr qo'yan podsho saroylarida, ijod ahliga homiylik qilgan badavlat kishilar xonadonlarida o'tkazilgan. Xususan, Husayn Boyqaro saroyi va Navoiy xonadonida o'tkazib turilgan mushoiralalar davr adabiyoti taraq-qiyotining muhim omillaridan bo'ldi" [Quronov. 2013.197].

Albatta, Navoiy huzuridagi suhabatlar (majlislarni ayrim o'rinnlarda ana shunday deb ham atashgan)da olim-adiblar va shoirlar tomonidan yangi asarlari taqdimoti o'tkazilib, muhokama qilingan, shoirlar sulton maslahatlariq qulqo tutilgan: "...Va o'tuz yildin ortuva qirg'ylga yaqindurkun, Xuroson mulkikim, fazl-u kamol ahlig'a o'lam mamalokinining misri muazzami va savodi a'zamidur, bu mulknning jami' nazm ahli shuaroyi shirin kalomi va fusahoyi vojib ihtiromi har ne, har ma'ni bilakim, avroq yuziga oroyish va har alsoz bilakim ajzo izorig'a namoyish beribdurlar, bu faqir (Navoiy) suhabatiga yetkurbdurlar va bu zaif ollindra o'tkaribdurlar va haq va isloh iltimosin qilibdurlar va xotirg'a kelg'on nuktaki aytilibduri, insof yuzidin musallam tutubdurlar va gar ba'zi ibo qilibdurlar daloyil bila alarg'a xotir nishon qilibduri, andin so'ngra qabul qilib, o'zlarin shokin va mammun bilibdurlar" [Navoiy.2012.526].

Zayniddin Vosifiyning "Badoey ul-vaqoey"sida keltirilgan quydigi voqeidan Navoiy huzuridagi adabiy majlislarni ma'lum bo'ladi.

"Mir (Navoiy) ovoz berdilar:

— Azizlar, kingilar. Hech eshitmag'an va xayolingizga kelmag'an maqolatlardan eshittinglar!



Hamma jim bo'ldi. Mir (Navoiy)
Hofiz G'iyosiddin Dehdorga dedi:

— Lofu da'vo qilding. Endi
izhorini qil!

Hofiz avval Qur'onдан ashara o'qidi. Majlis ahlining hushini oldi. Keyin g'azal o'qidi. Ashula boshladı – do'st-u dashmanı uning ovoziga ofsarınlar aytidi. "Amir Hamza" qissasını boshladı. Keyin o'zi aytgan bir dostonni o'qidi va majlis ahli hushi yo'qoldi. Uni tugatib "Abomuslim" qissasını o'qidi – hammani sehrlab qo'ydi. Majlis oxirida "Dorob" qissasını boshladı. Bog'bon bilan uning g'ulomi shu yerda turishgan edi. Ularning taqlidini qilib hammani kuldirdi, ba'zilarga shunday ta'sir qildilar.

Har kim har ilmdan bahs qildi. Bularga ham javob qildi. Hammadan g'olib keldi... Keyin Mirning buyrug'i bilan o'n besh qo'y keltirdilar. Boshqa kerakli asboblar ham keragicha hozirlandi. Hofiz tabbohlik qildi. Ovgati ham-maga yoqib tushdi [Ahmedov.1985.183].

"Amir Alisherning adab ahliga homiylik qilishi, barcha uchun ilm maskanlari eshigini ohib qo'yanligi natijasi o'laroq, butun Mavarounnahr, Xurosonning ilm shaydolari, talabadan tortib, donishmandigacha uning atrofida jam bo'ldilar. Uzoq-yaqindan to'plangan shoirlar uning majlislarini bezata boshladilar" [Sirojiddinov.2011.270].

Zayniddin Vosifiy ham Navoiyning adabiy majlislarida ishtirok etgan: "Oliy majlis (Navoiy xonadonidagi yig'inlar nazarda tutilmoqda – muallif)ga kirib bordik. Majlis ahli va hazrati Mir (Navoiy) o'z nadimlari bilan hozir ekan. Janobi Mir biz tomon qaradilar. Faqirga (Vosifiy)ga ishora qilib, nomini aytmay o'qilgan muammoni yecha oladigan do'stimiz shu kishimi, dedilar. Mavlono Sohibdoro: bali, o'sha maxdum, deb javob berdilar. Mavlono Muhammad Badaxshiy suhabatga aralashdilar: "Maxdumlar, xudovandigoro, muammo yechishda Sizdan o'tadigan yo'q-ku?..." Mir dedilar: "Men uning muammo yechishini ko'zidan bilishim. Zero, uning fikrlari ko'zlarida zohir bo'lib turibdi. Keyin shu muammoni o'qidilar:

Bog'ro bin az xazon befarru, sarv az jo shuda,

Bulbulash barham zada minqoru, no-go yo shuda.

(Bog'ini ko'r, xazonrezlikdan ko'rki qolmabdi, sarv o'rnida yo'q, bulbulning tumshug'i yo'q bo'lib, kuylashdan qolbillidi).

Mir o'qigan muammoni men yod bilardim. O'ylanib qoldim: nomini aytib, o'zimni go'llikka solib, majlisi o'tkazaversammi yoki to'g'risini aytayinmi? Oqibatda rostini aytishga ahd qildim. "...Hazrati Mir boshlarini egib turdilar-da, yonidagilarga, azizlar, bilasizlarmi, buning so'zi ne ma'noni bildiradi. O'z quadratini izhor etib, bunisini bilaman, boshqasini aytting, demogchi... biz buning da'vosini qabul qilurmiz, dedilar [Vosifiy.1979.93].

G'iyosiddin Xondamir "Xulosat ul-axbor"da uning o'zi ham Navoiy majlislarida hikoyatlar aytganini yozib qoldirgan: "Ulug' amir, hidoyatpanoh, karomatli Ruhning muayyidi (aksi), so'fiy-sifat, sof niyatli ro'zgor pokizasi, musulmon marosimlarini ulug'lovchi, saltanat ustuni va mamlakat tayanchi, xoqon davlatining ishonchli kishisi, sultoning yaqini, ulkim, saxovat das-turxonidan barcha muhtoj to'q, haq va haqiqat u din nizomi Amir Alisherning sharif majlisida hikoyatlar so'ylar edim. Ul janob mening hikoyatlarimdan zavqlanar edilar va hazratning turli inoyatlari bu qanoti siniq banda ahvoli ruhiyatiga issiqlik baxsh etardi. Kundan-kunga bu hol ko'payar va saat sayin yuksaklikka ko'tarilar edi [Sirojiddinov.2011.279].

Navoiy huzurida ana shunday adabiy yig'imir tez-tez tashkil qilingan. Biz keltirgan misollar dengizdan bir tomchi, xolos.

Xo'sh, Navoiy huzuridagi adabiy majlislarida qanday she'rilar o'qilgan, degan haqli savol tug'iladi.

Manbalar Navoiy she'riyat kechalarda badiha (rubio, qit'alar), tatabbu (boshqa shoirlar she'rleriga naziralar), yangi qasida va g'azallar, ayrim hollarda ta'rix va marsiyalar, muammo, lug'z, hikoyatlar, qissalar (masnaviyalar ko'rishida) o'qilganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy xonadonidagi yig'inlarining Husayn Boyqaro oliy majlislaridan farqi shundaki, Navoiy sinovidan o'tgan shoirlar hofizlar, qissaxon-u qasidago'ylar, muammo ilmida tengi yo'qlar, boringki, turli xil sohadagi yuk-sak iste'dod sohiblari podshoh oliy majlislariga tavsiya qilingan. O'z navbatida, adabiy majlislar davr adabiyotining rivojanishida ham muhim o'rincutgan.

Sherxon QORAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Ixlos

(Omonulla Madayevning "Navoiy suhbatlari" kitobi haqida)

Ustoz adabiyotshunoslar o'tasida shunday bir gap yuradi: "Adabiyotshunosning kuchi Alisher Navoiyni tushunishi va uning ijodini tadqiq eta olishi, hech bo'lmaganda bir maqola e'lon qilishi bilan o'chanadi". Adabiyotshunoslikning turli yo'naliishlarida izlanish olib borayotganlar balki bu fikrga qo'shilmas. Ammo bu yerda ixlos haqida gap ketyapti. Ixlos va izhor haqida.

Ustozimiz Omonulla Madayev folklorshunos olim edi-
yu hazrat Navoiy oldida o'zini qarzdor sezardi. Navoiyshunos olimlik maqomini hech da'vo qilmagan holda o'zini ixlos va izhor tarozisida tortib ko'rishni xohlardi. Bu gaplar, ehtimol, ko'p odamlarga ma'qul kelmas. Biz ham talabalik vaqtimiz ustozimiz Botirxon Akramov darsxona devoriga boshini qo'yib, ko'zida yosh bilan:

*Qatra qonlarkim tomar
ko'ksumga urg'an toshdin,
Zaxmdindur demakim, qon
yig'lar ahvoling'a tosh –*

baytini sharhlab berganida oshkor-u yashirin kulgan, bu ixlosni yuragimizga sig'dirolmagan edik. Ammo endi bu odamlar yo'q, o'shandek ixlos ham yo'q, O'zMUdagi o'sha darsxona devorlar bo'lsa hali bor.

Muallif kitobni "Navoiy suhbatlari" deb nomlaldi. Bu nom mutlaqo domlaning tabiatiga mos tarzda tanlangan. Suhbatlarida bizni o'ziga bog'lab qo'yardi, darslarni ham qo'lida qizil naqshli piyolasini tutgancha go'yo biz bilan suhbatlashgandek o'tardi. Jonli muloqot, jonli dars shunday ado etilardi. Talaba yigitlarga yo'lakda domla bilan suhbatlashib turish sharaf edi. Ustoz kitobni ham xuddi suhbatlashyotgandek yozibdi. Bu davrada siz o'zingizni azizlar davrasida, Navoiy huzurida turgandek sezasiz. Muallif so'zni sizni sharaflash bilan boshlaydi: "Aziz o'quvchim, jomim-farzandim". Yuragin-giz bo'lsa, "labbay" demay ko'ring-chi!

Kitob mundarijasi sakkiz suhbatdan iborat. Har bir suhbatning o'z mavzusi va maqsadi bor. Biz necha yillardirki, o'cta muktabda Navoiy mavzusiga aloqador adabiyot darslarini samarali tashkil qilolmay sarsonmiz. Afsuski, bog'chada, boshlang'ich sinflarda qalbimizga kirmagan Navoiy universitetda ham bizga jondek yaqin bo'lib ketmaydi. Sabab bitta: Navoiyni qanday o'qitishni

bilmaymiz. Navoiy tushuniliishi qiyin so'zlar uyumi emas, siyqa sujetlar emas, aruz taqt'i-lari ichida qolib ketgan ham emas. Muallif baholi qudrat shu masalani hal qilishni istaydi. Kitob adabiyot muallimlari uchun go'zal bir tavsija vazifasini bajaradi. Erkalab-erkalab, sizlab-sizlab Navoiy suhbatlariga oshno qiladi. Aniq bilaman, bu kitobni o'qib chiqqach Siz endi Navoiyni o'qishdan qo'rqmaysiz, tushunolmay qolishdan qo'rqmaysiz. Sizda uyg'ongan muhabbat endi Sizni uzoq manzillargacha yetaklab boradi.

Suhbat avvali "Hazrat Navoiyga munosib avlod" deb nomlanib, bu avlod qanday sifatlarga ega bo'lishi-yu qanday illatlardan xoli bo'lish haqida babs yuritiladi: "...hamma gap ma'naviy qashshoqlikda. Unda ma'naviy qashshoqlikning o'zi nima?" Va muallif o'z javobini keltiradi: "Ma'naviy qashshoqlik – insoning insonlik burchiga xiyonat qilishi". Ustoz ayanan insonlik maqomida turib o'zimizni cheksiz sevishimiz kerakligini uqtiradi go'yo. Shu maqomda turib o'zimizni aziz qilishimizni istaydi. Vatan, millat, ajoddolarni ulug'lash, tilga sadoqat masalalarida go'zal hayotiy dalillar keltiradi. Afg'onistondagi millatdoshlarimizning asl vatnalaridan nishona bo'lgan birgina paxta gulli piyolada qo'lma-qo'l suv ichganlari, so'ng davrada piyolani teng bo'laklarga bo'lib, muqaddas timsoldek uylariga olib ketganlari, ustozning qo'li-da saboq olgan Temur ismli millatdoshimiz amerikaliklarni Navoiy, Qodiriy mo'jizalarini bilan qoyil qoldirgani... Ular tumanli va g'ashga teguvchi quruq nasihat emas, ayni hayotiy voqealar. Alisher Navoiydek daho butun umrini ona tili nufuzini tiklashga bag'ishlagani, biz ham o'zimizni shu yo'lda safarbar eta olsak, munosib avlod bo'la olishimiz aytiladi. Balki siz ham e'tibor qilgandirsiz, men doim bir narsani kuzataman. Turli sohadagi olimlar, ziyolilar bilan



suhbatlashganimda, ko'pincha, ruscha so'zlarni qo'shib so'zlashtilar. Faqat, har ikki yoki uch tilni mukammal bilgani holda, shaxsiyati butun o'zbek ziyorolarigina suhbat uchun tanlangan yagona tilda muloqot qiladilar. O'zbek tili har qancha nabi suhbatlarga qurb-quvvati yetadigan til ekanligini o'shanda lahzalarda chuqur anglayman.

"Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar" faslida hazrat hayotligida boshdan kechirgan ayrim hodisalar haqidagi rivoyatlar keltiriladi. Bundan muddao shuki, rivoyatlarini ayrib berish orqali adabiyot o'quvchisi Navoiyni xayoliy yuksaklikdan bolalar yoniga olib tushsin. Hazrat bir fuqaro, bir er kishi, bir ustoz, bir do'st sifatida qanday edi? Uning qiyofasi tarhlari qanday bo'lgan? O'quvchi mana shu savollarija javob topsin va o'zi kabi oddiy bir inson ulug'lik maqomiga ko'tarila borganini tushunsin. Bu ko'tarilish xalq bilan hamnafaslik, uning qalbida mehr uyg'otish orqali yuzaga chiqadi. "Haddingdan oshsang, mozorga bor!" rivoyatida bayon etilishicha, Navoiy yashagan zamonda avom xalq bevosh bo'lib, o'g'rilari, johil-u qo'pollar ko'p ekan. Ular shariat qonunlaridan ham qo'rmas ekan. Alisher Navoiy vazir bo'lganidan so'ng jamiki sayr-u tomoshalar mazor boshida o'tkazilsin, degan farmoni oliy chiqaribdi. Natija qanday bo'lganini bilib turgandirsiz. "Xotira va qadralash kuni" ni mana shu merosiy haqla ado etamiz. Afsuski, bevoshlik, o'g'rilik, johillik, qo'pollik ham meros ekan bizga.

"Do'st bilan obod uying" faslida shunday jumlarani o'qiyimiz: "Jismoniy, ma'naviy, iqtisodiy jihatdan imthonlarda

bardavomligiga garov sifatida baholanmoqda". Yer-u ko'kda duolari sharofati bilan bizni asrayotgan valiylardan biri, ehtimol, hazrat Navoiyidir. Kitobning aynan Vatan bilan bog'liq mana shu nuqtasida endi Navoiy oddiy inson emas, avlyo bir zot bo'lib gavdalananadi. Valiylik Vatanga muhabbatdan tug'ilib keladi.

"Alisher Navoiy — ruhshunos" faslidagi mana bu gapdan keyin yuragimga yorug'lik tushdi: "Alisher Navoiy o'zlarining ekkil yildan ziyod yaratgan ijod namunalari ayanan Sizga, inson degan nomga munosib avlodlariga yaratganlar". Navoiy ulug' edi, asarlar ulug' vor va ularni bizni o'qyidi deb yaratgan bo'lsa, men ham sharaf egasi ekanman. Kitobxon ham mendek fikrlasa, u mana shu nuqtadan tilishni boshlaysidi: "Orzularga yetish uchun irodani, idroknii ishga solish kerak". Muallif fikrlari Farhod va Xusrav muqqoyasasida davom etadi.

Yetinchchi fasl avval g'azal, rubojo, so'ng xamsanavislik, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar poetikasi, ilmiy asarlar tabiatini haqida bo'lib, turli sinflar adabiyot darsliklari ga sochilib ketgan va bechora adabiyot o'quvchisi uchini topolmayotgan mavzuga oid ma'lumotlar, tayanch tushunchalarini tartibga soladi. O'quvchi o'quvchiga nima demoqchiliginini chamaraydi, bilimlarini tartiblashtiradi. Kitobning muhim jihat shundaki, avvalo, misol tariqasida olingan baytlarni to'g'ri o'qish o'rgatiladi. Afoli keltiriladi, ohang anglangandan so'ng ma'no qirralari ko'rsatiladi. "Navoiy dahosi va zamomoniz kashfiyotlari" nomli oxirgi subbatda Navoiyning kelajak tasavvurlari bugungi kun ilm-fan yutuqlari bilan tahvil etiladi.

Shunday qilib, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan, Navoysi bor-u o'zini yo'qdek tutadigan millat uchun bir kitob qo'lingizda. Siz ham uni o'qishgizni istar edik.

Ustozimiz adabiyotshunos olim Ibrahim G'afurov "Navoiyni o'qing, ishonchga qaytasiz" degan edi. Ustozimiz Omonilla Madayev "Navoiy amal qilgan qat'iy rejada INSON degan ulug' nomga ruhan pok, iymonli odamgina munosibidir" deb yozmishlar. Ulug'lardan bizga meroz – mana shu so'zlar ulug'ligidir.

"Ma'rifat" repetitor

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 18-varianti

ONA TILI (7-sinf, 72-97-betlar)

1. Yordamchi so'zlar haqida berilgan to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1. Yordamchi so'zlar gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi.

2. Yordamchi so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelmaydi.

3. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar yordamchi so'zlar hisoblanadi.

4. Yordamchi so'zlar so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlardir.

5. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'laydi.

A) 2, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 5

2. Qaysi gapda ko'makchi ishtirok etmagan?

A) Bu kitob qo'liga tushgandan keyin bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi.

B) Avval o'yla, keyin so'yala.

C) Siz bilan hamusubat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim.

D) To'yanan keyin nog'ora chalmoq – nodonlar ishi.

3. Sof ko'makchilarga xos bo'gan xususiyatlarni qaysi javobda xato berilgan?

A) Sof ko'makchilar urg'u olmaydi.

B) Sof ko'makchilar atash ma'nosini tamoman yo'qotgan bo'ladi.

C) Faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantrib bog'laydi.

D) Sof ko'makchilar mustaqil kelganda lug'aviy ma'noga ega bo'ladi.

4. Vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan gaplarni aniqlang.

1. Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi.

2. Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la

Bezamoq chog' idir umr daftarin.

3. Qog'oz oq bo'lgani uchun unga So'z bitadilar.

4. Gap futbol o'yini ustida ketardi.

A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 3, 4

5. Yo'nalish ma'nosini bildiruvchi ko'makchilar qaysi javobda berilgan?

A) sari, bo'ylab B) kabi, singari C) sababli, tufayli D) haqida, to'g'risida

6. Qaysi gapdagagi ko'makchini kelishik qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

A) Yana ular futbol haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishimizni talab qildilar.

B) Otasidan bir kun olib pul,

Kitob do'kon tomon soldi yo'l.

C) Nigora yaxshi xulqi, chirolyi muomalasi bilan ham obro'ga erishishi mumkin edi-ku!

D) Yurtim, seni faqat boyliklar-chun

Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

7. Chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladigan ko'makchilar qaysi javobda berilgan?

A) ko'ra, qaramay, yarasha

B) asosan, doir, muvoqiq

C) old, ost, ust

D) o'zga, tashqari, buyon

8. Vazifadosh ko'makchi qo'llanilishida uslubiy xatolikka yo'l qo'yilgan gapni aniqlang.

A) Yomonlarning qoshiga yalinish yaxshilar ishi emas.

B) Donolar oldida doim eshituvchi bo'l.

C) Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.

D) Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi.

9. O'zbekning boshida do'ppisi anvor.

Belbog'i ... to'ni misoli do'st-yor.

Siyom-u zarin olsang olgin-u ...

Tegma do'ppi,

Belbog'i,

To'niga zinhor! (Azim Suyun)

Ushbu she'rdagi nuqtalar o'rniiga mos keluvchi bog'lovchilar qaysi javobda berilgan?

A) yo, biroq B) bilan, lekin C) ammo, va D) va yo

10. Qaysi gapda teng bog'lovchi(lar) ishtirok etmagan?

A) Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishi.

B) U seskanib tushdi, chunki chol ro'parasiga kelib qolgan edi.

C) Nega kerak gapning "nega, nega"si,
Yo shoir, yo marhum buning egasi.

D) Ularda dard va iztirob ne qilar,
Ular faqat kishnab yurgan yilqlilar.

11. Quyidagi bog'lovchilarini guruhlariga ko'ra muvofiqlashtiring.

a) va, hamda, bilan, ham; b) ammo, lekin, biroq; c) yoki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan, xoh ... xoh; d) na ... na.

1) inkor bog'lovchisi; 2) biriktruv bog'lovchilar;

3) zidlov bog'lovchilar; 4) ayiruv bog'lovchilar.

A) 1 – d; 2 – a; 3 – b; 4 – c

B) 1 – a; 2 – b; 3 – c; 4 – d

C) 1 – c; 2 – d; 3 – a; 4 – b

D) 1 – b; 2 – a; 3 – d; 4 – c

12. Bog'lovchi ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Bilmili kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi.

B) Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoya boshlaydi.

C) Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshir ko'rishmaydi?

D) Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi sharoit bo'ladi?

E) Umru kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi sharoit bo'ladi?

F) O'rnida qo'shiladigan gapni aniqlang.

G) Hammasini tinglardim, ammo

O'xshashini topmasdin aslo.

H) O'ktam tolga suyanib, dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi.

I) Otni soy bo'yiga bog'ladi va o'zi yuqoriga chiqib ketdi.

J) Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.

14. Nuqtalar o'rniiga yo ... yo ayiruv bog'lovchisi mos kelmaydigan gapni aniqlang.

A) ... bir maslahatni aytib bo'ladi, ... ro'zg'or ishini.

B) Quyosh ... yalt etib ko'rinish qoladi, ... bulutlar ichiga bekinib oladi.

C) ... istagan bu maqsadga erishaman, ... o'lim meni bu yo'lda halok etadi.

D) Ishqilib ... ilmla, ... hunarli bo'lish payida bo'linglar.

15. Qaysi gapda balki so'zi zidlov bog'lovchisi vazifasida kelmaygan?

A) Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi

B) Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.

C) Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi.

D) Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi.

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 7-sinf "Ona tili" darsligidagi 99–121-betlarda berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktabning

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MATEMATIKA

("Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritm" mavzusidagi testlar)

16. Agar x butun son bo'lsa, $3x+4 < 2x+12$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi x ning eng katta qiymatini toping.

A) 7 B) 8 C) 6 D) 9

17. $a < 0 < b < c$ bo'lsa $|a-b| - |a-c| - |b-c|$ ni sodda lashtiring.

A) $2b - 2c$ B) $2a$ C) $2b$ D) $2c$

18. Yulduzchaning o'rniiga qaysi sonni qo'yish mumkin? 5; 14; 41; 122; *; 1094

A) 365 B) 473 C) 595 D) 1032

19. Ifodani soddalashtiring: $57 - (28 + x)$

A) $29+x$ B) $29-x$ C) $85-x$ D) $85+x$

20. Ikki son yig'indisi shu sonlarning ikkinchisidan 27 taga katta. Birinchi son nechaga teng?

A) 54 B) 28 C) 23 D) 27

21. Hisoblang: $3 - 1 + 7 - 5 + \dots + 99 - 97$

A) 50 B) 48 C) 46 D) 52

22. Do'konga har birida 25 tadan daftar bo'lgan bir nechta bog'lam va yana 15 ta daftar keltirildi. Hammasi bo'lib 340 ta daftar olib kelindi. Jami necha bog'lam daftar keltirilgan?

A) 12 B) 13 C) 10 D) 23

23. To'liqsiz bo'linma 21 ga, bo'linuvchi 89 ga, qoldiq 12 ga teng bo'lsa, bo'linuvchini toping.

A) 1881 B) 1799 C) 1981 D) 1781

24. Quyidagi: $c = (m-12):9$ formuladan m ni toping.

A) 9-c-12 B) 12-9c C) 9c+12 D) 12c-8

25. Agar $m+n+2=30$ bolsa, $10m+10n+12,8+7,2$ ni toping.

A) 252 B) 300 C) 400 D) 152

26. n ning shunday qiymatlarini topingki $\frac{n}{23}$ nozag'ri kasr $\frac{27}{23}$ kasrdan kichik bo'lsin.

A) $n = 23, 24, 25$ B) $n = 24, 25, 26$

C) $n = 23, 24, 25, 26$ D) $n = 20, 21, 22$

27. x ning qanday natural qiymatlarida quyidagi qo'sh tengsizlik o'rinni bo'ladi: $98,7 < x < 101$?

A) $x = 100; 101$ B) $x = 99; 100; 101$

C) $x = 98; 99; 100$ D) $x = 99; 100$

28. 4 ta birlik, 3 ta o'nlik, 7 ta yuzdan birlar, 5 ta o'ndan birlar, 6 ta mingdan birlardan iborat sonni yozing.

A) 34,756 B) 34,576 C) 34,756 D) 34,576

29. Birinchi qopga $\frac{3}{20}$, ikkinchi qopga esa $\frac{4}{25}$ sentner bug'doy solindi. Qaysi qopda bug'doy ko'proq?

A) 1-qopda 0,1 st ko'p B) teng miqdorda

C) 2-qopda 0,1 st ko'p D) 1-qopda 0,01 st ko'p

30. Ifodani soddalashtiring: $\frac{3}{5m^2} + \frac{4}{5m}$

A) $\frac{7}{5m^2}$ B) $\frac{23}{5m}$ C) $\frac{44}{5m^2}$ D) $\frac{2}{5m}$

Keyingi sonda "Grafikda keltirilgan ma'lumotlar"

Keyingi sonda "Grafikda keltirilgan ma'lumotlar tahlili" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 5-11-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

"Mařifat" repetitor

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 18-variante

tahlili" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 5-11-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'zbekiston tarixi

(9-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining 1-5-mavzu-lari asosida tuzilgan test savollarri

31. Quyidagi me'moriy inshootlarni qurilgan yili bilan to'g'ri ko'rsating.

- 1) Muhammad Aminxon madrasasi; 2) Sulton Muradbek madrasasi; 3) Hokim Oyim madrasasi; 4) Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi; 5) Muhammad Rahimxon madrasasi; 6) Xudoyorxon saroyi.

- a) 1851-1855-yillar; b) 1871-yil;
c) 1872-yil; d) 1862-yil;
e) 1869-yil; f) 1863-1870-yillar.
A) 1-a, 2-b, 3-e, 4-d, 5-c, 6-f
B) 1-a, 2-c, 3-e, 4-d, 5-b, 6-f
C) 1-a, 2-e, 3-c, 4-b, 5-d, 6-f
D) 1-f, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-a

32. O'zbek xonliklari madrasalarida o'qish mud-dati qachondan qachongacha davom etgan (XIX asr o'rtalari)?

- A) sentabr oyining birinchi yarmidan may oyining oxirigacha
C) oktabr oyining ikkinchi yarmidan avgust oyining oxirigacha
D) oktabr oyining birinchi yarmidan iyun oyining oxirigacha
D) sentabr oyining ikkinchi yarmidan mart oyining oxirigacha

33. Ollohqulixon, Muhammad Aminxon va Muhammed Rahimxon madrasalarini qanday usuldagagi me'morhilik an'anasida bezatilgan?

- A) quyoshsda uzoq vaqt quritilgan to'q qizil rang ustidan yashil va oq rangli tasvirlarning tushirilishi bilan

B) peshtoqlarga qushlar va hayvonlar rasmi aks ettirilgan kufiy yozuvlar bilan

C) har bir g'ishtni alohida-alohida ranglar bilan bo'yab, har xil shakkilar yasalishi bilan

D) tiniq zangori rang ustidan oq va yashil gullar tushirilgan koshinlar bilan

34. Toshkentda Baroqxon madrasasini qayta'mirlash ishlari boshlangan yili

- A) Muhammad Aminxon madrasasi qurilishi niyoyasi ga yetdi
B) Ahmad Donish Amir Nasrullo elchilari bilan Rossiya bo'ylab sayohatda bo'ldi
C) Mirxondning "Ravzat us-safo" asarini o'zbekchaga tarjima qilish boshlandi
D) Tarixchi Muhammad Yunus tomonidan "Xudoyqul Anvar" asari yozildi

35. XIX asr o'rtalarida qaysi shahar hunarmand-chilikning temirchilik, duradgorlik va zargarlik sohaliga ixtisoslashgan edi?

- A) Buxoro B) Shahrixon
C) Qo'qon D) Chust

36. Qo'qon xonligi sharqda qaysi hudud bilan chegaradosh bo'lgan?

- A) Xitoy
B) Hindiston
C) Qozoq juzlari
D) Sharqiy Turkiston

37. O'rta Osyoning quyidagi qaysi shaharlarida do'ppichilik hunarmandchiligi rivojlangan edi?

1. Marg'ilon; 2. Buxoro; 3. Shahrixon;
4. Qo'qon; 5. Chust.
A) 1, 2, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 5

38. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi chegarasini tomonlari bilan to'g'ri ko'rsating.

- 1) g'arb; 2) sharq; 3) janub; 4) shimol.
a) Pomir tog'ları; b) Amudaryoning chap sohilidagi yerlar; c) qozoq juzlari yerlari; d) Xiva xonligi.
A) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c

- B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c
C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
D) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d

39. Olimlar yasovuli mansabi qaysi davrda paydo bo'lgan?

- A) XVI asr B) XV asr
C) XVIII asr D) XVII asr

40. Ahmad Donishning astronomiya faniga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydigan asarini toping.

- A) "Buxorodan Peterburgga sayohat"
B) "Navodir ul-vaqoe"
C) "Manozir ul-kavokib"
D) "Ravzat us-safo"

41. Xiva me'moriy obidalarining qaysi bira Ark darvozasi qarshisida bunyod etilgan?

- A) Muhammad Aminxon madrasasi
B) Muhammad Rahimxon madrasasi
C) Rahmonqul Inoq saroyi
D) Ollohqulixon madrasasi

42. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida amir-qo'shinlarining bosh qo'mondoni nima deb yuritilgan?

- A) amirlashkar
B) yasovulboshi
C) mirshabboshi

- D) to'pchiboshi

43. Ahmad Donish nechanchi yillarda yashagan?

- A) 1809-1874-yillar
B) 1812-1892-yillar
C) 1827-1897-yillar
D) 1827-1899-yillar

44. XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida oliy amaldor devonbegi hisoblanib, uning ixtiyorida ...dan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan.

- A) mehtar, qushbegi, mirzaboshilar
B) inoq, otaliq, biylar
C) qushbegi, mehtar, otaliqlar
D) mirzaboshi, qozikalon, qushbegi

45. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xonliklarining hududi bugungi kundagi O'zbekistondan tashqari, qaysi davlat yerlarining bir qismini o'z ichiga olgan?

- A) Qozog'iston, Tojikiston, Eron, Turkmaniston, Afg'oniston, Pokiston
B) Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston
C) Tojikiston, Eron, Turkmaniston, Hindiston
D) Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston, Eron, Armaniston, Pokiston

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti talabasi,
repetitor

| ONA TILI | | | | | | | | | | | | | | |
|---------------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| A | B | D | C | A | B | D | A | C | B | A | C | D | B | B |
| MATEMATIKA | | | | | | | | | | | | | | |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| A | A | A | B | D | A | B | A | C | B | C | D | B | C | B |
| O'ZBEKISTON TARIXI | | | | | | | | | | | | | | |
| 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
| B | D | D | D | C | D | D | B | A | C | B | D | C | C | B |

Boylikka hirs qo'ygan kishining ahvoli

Hazrat Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni falsafiy yo'nalishdagi qiziqarli hikoyalari bilan o'quvchi e'tiborini jaib qiladi. Undagi bosh qoliplovchi hikoya: jahon qushlarining yig'ilishib martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashishlari va Hudhud boschchiligidagi "barcha olam qushlarining shohi" Semurg'ni izlab yo'nga chiqishlari hamda asar so'ngida uni topa olmay haqiqiy Semurg' - o'ttiz qush o'zlarini ekanliklarini anglab yetganidir.

Uni to'ldiruvchi bir-birdan qiziqarli voqealar esa yo'lboshchi Hudhud tilidan so'zlab beriladi. Har bir qush yo'l mashaqqatidan cho'chiydi va o'z uzrini aytil Hudhuddan yordam so'raydi. Hudhud har bir qushning savoliga o'tinli javob berib, yo'l mashaqqatlarini yengib o'tishga chorlaydi. Bu yo'l nafshi yengish yo'li bo'lib, uning oxiri har birimizni saodatga eltdi. Qushlardan biri Hudhudga boylik, oltin-u kumushga ko'ngil qo'ygan, usiz hatto o'lib golishi mumkinligini aytadi:

Bir nafas gar bo'lmasa ilkmda sim,

Hajrida jonimga bor o'lmaqka bim.

Hudhud uning so'zini eshitib, avval tanbeh beradi:

Bu ne so'z bo'lg'ayki zikr etgay kishi,

Kim emas bu odamiyllarning ishi.

Ya'ni, haqiqiy insonlar boylik to'plash orqasidan quvvaydilar, bu ish sichqonlarga xos. Sichqon yer qazib dirham yig'adi va bir kuni mushukka yem bo'ladi. Sen uddi xazinani qo'riqlovchi ilonga o'xshaysan. Uni boylik izlovchilar ko'rgan zahoti boshini yanchib tashlaydi. Pul, mol-u davlat hech kimga vafo qilmagan. Behisob xazina egalari bo'lgan Qorun va Faridun ham bu dunyodan hech narsa olib ketmadilar. Shunday ekan:

Er esang maqsudi asli ko'zlagil,

Har nekim so'zlarsen - ondin so'zlagil.

Qilma ul ishkim yetib nuqson sang'a,

Oxiri bo'lgay yuboli jon sang'a.

Hazrat Alisher Navoiy ochko'zlikning kishi joniga qasd qilishi haqida shunday hikoyat keltiradi:

"Basra shahrida bir ochko'z kishi bor edi. U nodonlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidan ketgan edi. U katta xazina to'plagach, ularni yer tagiga ko'mdi. Yana shunchasini to'niga gir aylantirib tikib oldi. U o'zicha, tанима quvvatgina emas, balki jonimga sihhat ham shu oltinlarim tufayli, deb o'yardi.

Bir kuni u savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdo qilgan pullaridan tushgan harom pullariga taom olib yedi. Qo'lini yuvish uchun daryo labiga engashdi. Ammo to'niga tikkan oltinlar og'irlik qilib, uni suvg'a tortib ketdi. Xasisi kishi yordamga chaqirdi. Odamlar kelgunchka to'nidagi boylik og'irlik qilib suv tubiga cho'kib ketdi. To'plagan xazinasi uni halok qildi". Hikoya so'ngida ulug' bobokaloni shunday o'git beradi:

Siyam yig'moqqa natija bo'ldi bu,

Sen oning savdosidin ilkingni yuv.

Ha, ochko'zlik va xasislik tufayli inson halokatga yo'liqadi. Chinakam boylik imon-e'tiqodli bo'lishga intilishdir.

Hidayat POLVONOVA,
Namangan tumanidagi 24-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Muhabbatga qo'yilgan boqiy haykal



Donishmandlardan biri "Oshiq uchun sevgilisi uyidan ko'tarilgan chang misli Ka'badir" degan ekan. Darhaqiqat, sevgiling istiqomat qiladigan ko'chadagi har bir narsa, daraxtlar ham g'oyat yoqimli ko'rindi. Kishi muhabbat dardiga mutbalo bo'lsa, ma'shuqasida biror kamchilik ko'rmaydi sira. Ha, ishq shunday sehrli tuyg'u, yoqimli dardki, shoir aytganiday. "qulni aylab shoh-u sulton, shohni esa qul qiladi".

Asarlarida ezgulik, insoniylik, vafo-sadoqat va sevgi-muhabbatni yuskak tarannum etgan buyuk shoir, mutafkirkir, alloma Mir Alisher Navoiyning "Xamsa"idan o'ren olgan "Layli va Majnun" dostoni ham pok sevgi-muhabbatga qo'yilgan boqiy haykaldir, desak mubolog'a bo'lmas.

Alisher Navoiy forsiyda ijod qilgan shoirlar – Nizomiy, Amir Xisrov Dehlaviy va Jomiyini o'ziga ustoz deb bilgani hech kimga sir emas. Lirik shoir sifatida u g'azallarinining shartli shakli yoki ko'rinishini o'zgartirishga urimmag'an, bil'aks Navoiy muhabbat mavzusini bo'lishi muqarrar deb bilinadigan lirik shakldagi ushbu sersig'im uslubda o'zining shoirlar imkoniyatlarining bitmas-tuganmasligini ko'rsata bilgan hamda so'z javohirlari bilan bezatilgan o'ziga xos so'qmoqlarni topib, bebafo qalamini yurita olgan. Nizomiy, Xisrov Dehlaviy va Jomiyining ko'p asrlik "Xamsa" an'analarini shoirona rivojlantira borar ekan, Navoiy an'anaviy mavzu yangi g'oyaviy-badiiy nuqtayi nazardan boyitilgan, ma'nosini jihatidan o'ziga xos chuchur ishlangan epik asarlar majmuasini ham yarata olgan. Ushbu o'rinda Fuzuliyning Y. Bertels, E. Gibb ma'lumotlari asosida keltirgan quyidagi baytimi eslab o'tish o'rindilidir:

Forsiya Layli va Majnunlar serob, Lekin turkiyda bu rivoyat yo'q.

Bertels ma'lumotlari Fuzuliy Navoiy ijodi bilan a'lo darajada tanish bo'Igan, ammo u Navoiyning "Layli va Majnun" asari bilan tanishmaganiga aql bovar qilmaydi, degan so'zlarni yozadi. "Balki Navoiy yozgan "Layli va Majnun" dostoni Bag'doda yetarlicha mashhur bo'lmagandir", degan fikrni ilgari suradi mashhur sharqshunos olim. Fikrimecha, Fuzuliy o'ta qashshoq hayot kechirgani bois Navoiyning "Layli va Majnun" asari uning qo'liga yetib bormagandir. Balki Bag'dod ahli turkiy zabonda yozilgan asarlarni tushunishda ojiz bo'Igandir va Navoiy asari u yerda keng tarqalishi uchun tarjimon san'atiga echiyoj sezilgandir.

Kunlardan bir kuni bir kishi Abdurahmon Jomiyining oldiga kelib, ul hazratga murid bo'lishi istagi borligini bildiribdi. Shunda Jomiy "Siz hayotingiz mobaynida biror kimsani sevganmisiz?", deya so'rabi. "Yo'q" javobini eshitgach, "Bir murid usoq yillar o'z murshidi xizmatida bo'Igan ekan, lekin bilim olishda ilgari siljy olmabdi va ko'ngli ravshanlashmabdi. Shunda u murshidi oldiga borib, "Men ko'ngliga ravshanlik kelgan ko'plab muridlaringizni ko'rdim, lekin har qancha urinsam ham, menga ilgari siljish nasib qilmayotir. Shuning uchun

umidsizlikka tushdim va sizdan oq fotiha olib hayotda o'z o'mimni topmoqchiman", debdi. Shunda murshid o'z muridiga yurtiga ketgunicha xonaqdon uncha uzoq bo'lmanan uyda ruhini rivojlantiridigan hech qanday ijodiy mashg'ulotsiz yashab turishni hamda har kuniunga yaxshi taomlar yuborib turib, hayotning barcha qulayliklaridan xotirjamlik bilan lazzatlanishni buyuribdi. Murid ertaga yurtiga ketadi, deyilgan kuni murshid unga go'zal bir qizdan sarxil mevalar bilan to'ldirilgan savat jo'natibdi. Qiz savatni gilam ustiga qo'yibdi-yu, shuzahoti jo'nab qolibdi. Uning husni-jamoli murid yigitni shu darajada o'ziga rom qilibdi, u endi qizdan bo'lak biror narsa haqida o'ylay olmay qolibdi. Har on o'tgan sari qizni yana bir ko'risha bo'Igan ishtiyooq muridda kuchaygan-kuchayib boribdi. U taom yeyishni butkul unutib, kunini oh-voh bilan, ko'zyosh bilan o'tkaza boshlabdi. Chunki uning yuragiga muhabbat alangasi tushib, erib ketgan ekan. Birmuncha vaqt o'tib murshid shogirdi oldiga kirib, bir boqishdayoq uning ko'ngliga ravshanlik hadya qilgan ekan. Hattoki po'latni ham olovga tutgach, qolipga solish mumkin, shuningdek, yurak ham muhabbat olovida eriydi. Avvaliga kimmadir seva biling, so'ngra mening oldimga keling, deya Jomiy muridlik talabida bo'Igan yigitni to'g'ri yo'Iga solib yuborgan ekan.

Layli va Majnun shunday muhabbatning eng buyuk ramziy timsolari – ular insoniyatning ulug' donishmandlari tomonidan eng toza, g'arazsiz muhabbat mujassamlashgan, sevgilisi uchun o'zini butkul unutgan odam siyosidir, deb tanolangan.

"Layli va Majnun" qissasini birinch bo'lib bayon qilgan shoir deb Nizomiy Ganjaviy qabul qilingan. Aslida ushbu mashhur tengsiz muhabbat jahonda birinch bo'lib Rudakiy tomonidan she'rga solib kuylangan, lekin qandaydir sabablar bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushmay qolgan degan qarashlar bor. Rudakiyning ushbu asari saqlanib qolganmi yoki yo'qmi, menda bu haqda ma'lumot yo'q. Balki saqlanib qolmagandir va shusababdan ham "Layli va Majnun" qissasini bayon qilgan shoirlarni Nizomiy izdoshlari deb atash qabul qilingandir. Bunday izdoshlar chamasi 50 nafarcha

bo'lib, ularning 20 nafarining asarlari ustida Bertels ba'zan qisqa, ba'zan davomiy to'xtalib o'tadi. Bertels yozgan bayoniga qarab o'quvchi Nizomiyning "Layli va Majnun" asariga Navoiy hamda Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarigina bo'y-basti bilan tenglasha olgan, degan xulosaga keladi. Bu uch daho o'z asarlarida bir muhabbat fojasini mutlaqa bir-biridan farqli, bir-birini takrorlamay va takrorlanmas qilib yaratda olishgan.

Albatta, "Layli va Majnun" qissasining jahon bo'yab targalishida Nizomiy asariga Navoiy hamda Fuzuliy asarlari ham yelkadosh bo'Iganiga hech bir shuba bo'lishi mumkin emas. Navoiy "Layli va Majnun" asarini ustozni Jomiyidan bir yil avval yozib yakunlagan e'tiborga sazovordir. Navoiy ushbu asarini 1483-yili yakunlagan bo'Isa, Jomiy 1484-yili tugallagan. Kim biladi deysiz, balki Jomiy Navoiyning andishasida bo'Iganikan, Navoiy esa Jomiy ham "Layli va Majnun" mavzusini qalamga olganidan bexabar bo'Iganmikan?

Navoiyning chig'atoi tilida (eski o'zbek tilida) yozilgan "Layli va Majnun" dostonini tushunishimda ko'proq Lipkinning rus tiliga aylantirilgan tarjimasiga suyandim, desam, ko'pam kulgiga qolmasman va navoiyshunos bo'Imaganim uchun uzrim qabul qilinlar. Mabodo tilimizning shakllanishi ustida salkam yuz yildan buyon betinim ishlayotgan tilshunos olimlarimiz bizning tilimizni sekin-asta Navoiy asarlarini to'liq tushuna oladigan yo'nalishda rivojlantira borishganida, balki tilimiz hozirgandan-da go'zalroq bo'larmidi va biz Navoiy asarlari hech bir qiyinchiliksz o'qib, rohatlanib yuramidik. Har bir sohada buyuklар ortidan ergashish yaxshilikka yetaklagani kabi tilimiz rivojida ham buyuk Navoiy asarlari tili ortidan xalqimiz ergashganida o'zbek zaboni hozirgandan-da go'zalroq hamda hozirgandan-da nafosatliroq zabon olami tomon yurgan bo'lar edi, deya o'ylayman. Fors tilini bilmaganim uchun Nizomiy asarini ham rus tiliga o'girilganini o'qib o'rganib chiqdim hamda Navoiyning Nizomiy panjasiga urganchasi zarbi menga kuchliroq tuyuldi.

"Layli va Majnun" qissasi bayon etilgan asarlar bilan tanishib borar ekanman, Bertels o'z asarida tilga olmagan hamda o'zim na Navoiy, na Nizomiy, na Fuzuliy, na Xisrov Dehlaviy, na Jomiy va boshqa "Layli va Majnun" qissasiga bag'ishlangan assarlarda bayon etilmagan hotlatlar berilgan ikki asarga ro'baro' kelib goldim. Bulardan biri boshqa asarlarda ko'rinnagan kishini hayratga soluvchi

sifatlar bilan boyitilgan hazrat Inoyatxon bayoni bo'Isa, ikkinchisi 1976-yili Kiyevda chop etilgan B.Shidfar tahriri va so'zboshisi asosida bizga yetib kelgan "Banu Amir qabilasilik Majnun haqida rivoyat" ("Сказание о Маджнуне из племени Бену Амир") asarlaridir.

Asrlar davomida muhabbat muhabbat timsoli bo'lib kuylanib kelayotgan Majnun va Layli shoirlar tomonidan o'yab topilgan siymolar bo'lmasdan, haqiqatan ham yashab o'tgan insonlardir. Zamondoshlari tomonidan "Laylining Majnuni" taxallusini oltagan shoir Qays ibn al-Mulavvax shimoliy arablarning Banu Amir qabilasi farzandi bo'Igan. Qator qadimiy arab olimlaridan qolgan bebafo qo'lyozmalar Majnun taxallusli shoir Qays ibn al-Mulavvax haqiqatan ham yashab ijod etganidan darak beradi. Majnun o'z she'rilarining ko'pini og'zaki aytib yurgan, ba'zan qumlargacha yoki toshlarga bitgan. Uning muhabbatini va she'rleriga oshiq bo'Iganlar va she'rlerining ko'pining saqlanib qolishiga va keyinchalik olimlar tomonidan oqqa ko'chirilishiga sabab bo'lishgan. Layli va Majnun xalifa Abd al-Malik davrida hayotining oxirgi yillarini o'tkazib, 689- va 699-yillar o'rtasida foni olamni tark etishgan. Barcha "Layli va Majnun" dostonining asosiy qahramonlaridan bira bo'Igan Naufal ibn Musaxik (706-yili vafot etgan) davlat arbobi va she'riyat muxlisi bo'Igan. Bu ham "Layli va Majnun" dostonlarida tarixiy haqiqat berilganiga yaqqol dalildir...

Shu nomdag'i asarlardan birida tasvirlanganidek, Majnun tuyu qadamiga qadamini rostlab, hansirab, joni halqumiga tiqilib, yo'l-yo'lakay xat tashuvchidan iltijo qilib, Layliga yo'llayotgan maktubini bayon qilib borar ekan, muhabbat ohi-alangasi nuri bilan sug'orilgan u xat insoniyat tarixidagi sidqidildan tililgan, oshiqning ma'shuqasiga muhabbat izhori bo'yicha eng sermazmun, eng uzun oshiqona maktub olamga nur kabi taralgandir. Asrlar osha o'z aks-sadosini berib, avvaliga avvalgi o'n chaqirim masofadagi Majnunning Layliga bo'Igan oshiqligi ohi bayoni Nizomiy, keyingi o'n chaqirimdagisi Fuzuliy, keyingi o'n chaqirimdagisi Navoiy, yana bir o'n chaqirim yo'l bosgandagisi Jomiy, yana bir o'n chaqirimdagisi Maktabiyalar yozib ketgan dostonlar ko'rinishida bizga yetib kelmadimikan! U maktubning insoniyatga kelayotgan nurli aks-sadosi hali-beri ado bo'lmas hamda kelajak avlod ham u muhabbat nuri bilan sug'orilgan mislsiz dostonlar ustida yana ming yillar davomida qalam tebratarlar hamda bu yo'lda ularga doimo Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy va "Layli va Majnun" muhabbatini o'zlarining bebafo asarlarda kuylagan boshqa daholar piri madadkor bo'larlar va bebafo asarlari bilan "labbay", deya javob berarlar, deya umidvor bo'lib qolamiz.

Mansurxon TOIROV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

Layli va Majnun xalifa Abd al-Malik davrida hayotining oxirgi yillarini o'tkazib, 689- va 699-yillar o'rtasida foni olamni tark etishgan. Barcha "Layli va Majnun" dostonining asosiy qahramonlaridan bira bo'Igan Naufal ibn Musaxik (706-yili vafot etgan) davlat arbobi va she'riyat muxlisi bo'Igan. Bu dalil ham "Layli va Majnun" dostonlarida tarixiy haqiqat berilganiga yaqqol dalildir...

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona tashkilot va muassasalar rahbarlari diqqatiga!
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

rektorati 2020-2021-o'quv yiliда bakalavriat yo'nalişlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarini hamkorlik shartnomalari asosida ish joylariga taqsimlash jarayoni boshlanganligini ma'lum qiladi. Universitetning zamonaliviy bilimlarni mukammal o'zlashtirgan bakalavr va magistrlariga ehtiyoji bo'lgan korxona rahbarlaridan bitiruvchilarga kelgusidagi ish joyini tanlashida ko'maklashish maqsadida ularga yaratib berilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan (maosh, turar joy bilan ta'minlash va boshqa imtiyozlar) haqida universitet rahbariyatiga joriy yilning 15-martiga qadar talabnomaga hamda so'rov xati bilan murojaat qilishingizni so'raymiz.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetini 2020-2021-o'quv yiliда bitirayotgan bakalavr va magistrlar haqidagi ma'lumotlar: (g — davlat granti asosida, sh — shartnoma asosida):

Manzilimiz: Toshkent shahri, 100138, "Kichik halqa yo'li", G-9A mavzesi, 21-uy.
 Ma'lumot uchun telefon: (90) 178-45-70; (95) 004-80-40

| № | Toshkent shahri | Bakalavr | | | | | | | | | | | | Magistratura | | | | | | | | | | | | | | | | |
|-------------------------------|-----------------|----------------------|------------|----------------------------------|------------|------------|------------|-------------|----------|----------------------|------------------------------|--------------|-------------|--------------|------------|--------------|------------|------------|------------|-------------------------------------|-------------------------------|----------------------------|-----------------------|--|----------------------------|---|----|-----|----|---|
| | | Xorijiy va adabiyot: | | Filologiya va tillarni o'qitish: | | | | | | | | | | Jum'iyat | | Lingvistika: | | | | | | | | | | | | | | |
| | | Ingliz tili | Nemis tili | Franzuz tili | Ispan tili | Xitoy tili | Yapon tili | Koreya tili | Nis tili | Ona til va adabiyot: | Tajima nizomasi va amaliyoti | (Ingliz til) | Ingliz tili | Franzuz tili | Nemis tili | Rus tili | Ispan tili | Xitoy tili | Yapon tili | Osiyotibtimsharoqlik (Ingliz tilga) | Aduzboshchilik (Ingliz tilga) | Aduzboshchilik (Rus tilga) | Konflikti va döbötöt: | Mədəniyyət və idarəetmə sistemlərinin ingiliscə (Ingliz til) | Sinon tərjima (Ingliz til) | | | | | |
| Shahar (tuman) va viloyetlar | | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | |
| Yakkasanoy | 2 | 22 | 6 | 1 | | | | 2 | | 1 | 3 | | 2 | 3 | 1 | 2 | 4 | 6 | | 1 | 2 | 4 | 6 | | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Shayxotohor | 8 | 35 | 7 | | | 1 | 1 | | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 | 4 | 5 | 1 | 2 | 9 | 1 | 3 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Uchtepa | 15 | 58 | 9 | 1 | 3 | 1 | 2 | | | 1 | 1 | 4 | 2 | 1 | 5 | 5 | 1 | 2 | 9 | 1 | 3 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Yurusobod | 12 | 47 | 1 | 4 | 1 | | 1 | 1 | | 1 | 1 | 8 | | 2 | 1 | 1 | 12 | 4 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 3 | 4 | 1 | 1 | 5 | 1 | 1 |
| Sing'ali | 8 | 42 | 4 | 2 | | | 2 | | | 3 | | 1 | 8 | 1 | 4 | 1 | 12 | | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Chilonzor | 8 | 50 | 1 | 7 | 2 | | 3 | 1 | 3 | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | 3 | 3 | 36 | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | |
| Yashnabod | 5 | 29 | 1 | 3 | 1 | | 1 | | 2 | 1 | | 1 | 3 | 1 | 1 | 3 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 20 | 1 | 1 | 3 | 1 | |
| Mirrobod | 3 | 24 | 6 | 1 | 1 | | | | 2 | 1 | | 2 | | 1 | 4 | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | |
| Mirzo Ulug'bek | 9 | 44 | 2 | | | | | | 1 | 1 | 1 | 2 | 3 | 1 | 2 | 1 | 6 | 1 | 3 | | | | 1 | 4 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0 | |
| Olmazor | 8 | 46 | 5 | | | | 1 | 1 | | 1 | 4 | | 3 | 1 | 1 | 1 | 9 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | | |
| Bektemir | | 13 | | | | | | 1 | | 0 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Jami: | 78 | 410 | 3 | 54 | | 1 | 1 | 7 | 1 | 11 | 1 | 8 | 6 | 29 | 7 | 3 | 32 | 4 | 23 | 1 | 5 | 11 | 100 | 8 | 1 | 6 | 2 | 6 | 10 | |
| Andijon viloyati | 2 | 41 | 1 | 4 | 1 | | 1 | | | | 1 | | 1 | | | | | | 4 | | | | | | | | | | 1 | |
| Ezuvoro viloyati | 16 | 64 | 2 | 9 | 1 | 3 | 3 | | 1 | 1 | 1 | | 3 | | | | | 3 | 1 | | | | | | | | | | | |
| Jizzax viloyati | 6 | 59 | 2 | 5 | 2 | 1 | | 1 | 3 | 1 | | 2 | | 7 | | 3 | 1 | 1 | 4 | | | | | | | | | | 5 | |
| Namangan viloyati | 14 | 57 | 6 | | | 1 | | | | 1 | 3 | 5 | | 2 | 1 | 3 | | 3 | | | | | | | | | | | 3 | |
| Navoiy viloyati | 11 | 50 | 4 | 2 | 2 | 2 | | | | | 2 | | | 2 | 2 | 3 | | 2 | | | | | | | | | | | 1 | |
| Samarkand viloyati | 20 | 86 | 1 | 12 | 8 | 1 | 1 | | 4 | 2 | 3 | 1 | 3 | 7 | 2 | | 1 | | | | | | | | | | | | | |
| Surxondaryo viloyati | 15 | 73 | 3 | 9 | | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 5 | 1 | 1 | 1 | | 3 | | | | | | | | | | | 2 | |
| Sirdaryo viloyati | 7 | 39 | 2 | 8 | | 1 | 1 | | | 1 | | 1 | | | | | 2 | 2 | | | | | | | | | | | 1 | |
| Farg'onalar viloyati | 13 | 72 | 2 | 6 | | | | 4 | | 1 | 1 | 11 | 2 | 1 | 2 | 1 | 1 | | | | | | | | | | | 2 | | |
| Xorazm viloyati | 18 | 88 | 1 | 6 | 1 | 4 | 1 | 1 | | 1 | 1 | 5 | 1 | 3 | 1 | 1 | 5 | | | | | | | | | | | 1 | | |
| Qashqadaryo viloyati | 35 | 221 | 5 | 12 | 1 | | | | 2 | 1 | 1 | 13 | 8 | 22 | 6 | 5 | 6 | 1 | 1 | | | | | | | | | 2 | | |
| Toshkent viloyati | 21 | 171 | 7 | 26 | | 1 | 2 | 2 | | 2 | 1 | 3 | 8 | 9 | 2 | 13 | 8 | 2 | 1 | 21 | | 2 | 1 | | 2 | 1 | 5 | 1 | | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 9 | 48 | 1 | 3 | 1 | | | 1 | | 1 | | 1 | | | 2 | 1 | | 4 | | | | | | | | | | 1 | | |
| Jami: | 265 | 1479 | 30 | 164 | 5 | 29 | 5 | 13 | 2 | 13 | 2 | 16 | 2 | 14 | 2 | 17 | 16 | 79 | 11 | 56 | 9 | 72 | 10 | 50 | 3 | 8 | 12 | 150 | | |

Sinab ko'ring

O'quvchi she'r yodlashdan orlanadimi?!

O'quvchilarga odatda adabiyot fanidan tez-tez she'r yodlash vazifasi beriladi. Bu ijodkorning yaratgan asarlariga yaqinroq bo'lish va o'quvchining nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. Qolaversa, yod olgan she'rini sinfdoshlari qarshisida aytib berishi natijasida omma oldida fikrini bayonetish qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, she'r yodlash xotirani kuchaytiradi.

Ammo so'nggi vaqtlar yoshlarda she'r yodlashga e'tibor sustplashgandek. Bu haqida o'qituvchilar ham ko'p bora shikoyat qilishadi. Go'yo she'r yodlash "yosh bolalarning ishi"dek qaraladi. Yoki she'r matni ularga murakkablik qilayotgani, qancha harakat qilsa ham, eslab qololmayotganini aytishadi.

She'rni eslab qolish va ifodalid aytib berish osor emas. Yodda saqlab qolish

qobiliyati hammada har xil. Bu muammoning yechimi bor. Keling, ularni siz biln o'rtoqlashamiz. Bir qarashda aytmoqchi bo'lgan fikrlarimiz murakkabroq, ko'p energiya sarflashni talab etadigandek tuyulishi mumkin. Lekin bulgarla amal qilib borsangiz, vaqt o'tishi bilan mahoratingiz oshib boraveradi.

Ko'p sinalgan usullardan biri — uyg'a berilgan vazifalarini bajarishni

she'r yodlash topshirig'idan boshlang. Avval she'rni ichingizda o'qib, yaxshilab tanishib chiqing. Iloji bo'lsa, ikki yoki uch marta. Voqe-a-hodisalar tasvirlangan, ya'ni doston, ballada yoki voqeaband she'rлarni yodlayotgan bo'lsangiz, ulardag'i jarayoning ketma-ketligini yodda saqlang. She'rni so'ngra ovoz chiqarib, bir necha marta takror o'qing. Shundan so'ng, she'rni aytib berishni boshlang. Yodingizda qolmagan bandlarini matnga qarab qayta aytning. She'rni qog'ozga ko'chirib yozing va qismulgara bo'lib chiqing. Misralar xotirangizga o'mishib borgani sari, matnga qaramasdan aytishga harakat qiling. Yod olgan she'rni uxlashdan oldin va uyg'onganingizdan so'ng ham takrorlang. Shunda u xotirangizga

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Elektronika va avtomatika fakulteti IMT 2-kurs 146-19-guruh talabasi Ergashev Feruz Mansurjon o'g'liga tegishli REYTING DAFTARCHASI yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalariga rahbariyati va jamoasi vazir o'rinosi Uzoqboy Begimqulova singlisi Gulbodom BEGIMQULOVAning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

O'zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan

Ildizdag'i tuyg'udan yaproqlarim titraydi,
Tog'da jim erigan qor soylarda sharqiraydi,
Bobom bo'g'zidagi "oh" ko'zidan tirqiraydi,
She'r jonidan to'yganmi, dil tubiga sakraydi,
Bu holimga usfadan birov to'lib qaraydi,
Asrlar ham bir-birin odam kabi qo'msarkan,
Bunda she'r o'qiy desam, quyosh ko'zni to'sarkan.

Bunda ey, niyatlarin yaproq kabi to'kkalar,
Bir elning hasratini dilda mushtdek tukkanlar,
Ey, qanotsiz uchganlar, qush tilidan o'pganlar,
Asrlar yuragida yugrik qonday chopganlar,
Usti ochiq dunyoning etagini yopganlar,
Oltin qoziqqa boqib sayyoh ham yo'l toparkan,
O'zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.

Bobo tuproq, shon tuproq, ildizim botgan tuproq,
Taftin tanimga berib, o'zi sovgotgan tuproq.
Sendan o'sgan chinorning shoxida men bir yaproq,
Qorong'u tomonimni yoritgan ey, shamchiroq.



Ko'ngilning qubbasiqa Xudoyim ilgan bayroq,
Uni hilpiratguchi yel yurakdan esarkan,
Bunda she'r o'qiy desang, yelkangdan so'z bosarkan.

Tog'larda qor ostida mening ko'nglim o'syapti,
Cho'poningning iziga tavof deb yuz bosoapti,
Yomg'ir tortgan pardalar jamolingni to'syapti,
Shu elning or-g'ururi kamolindan toshyapti,
Yelkam jimirlayapti — qanotga o'xshayapti,
Yurak she'r dan to'lisha, so'z qanotga do'narkan,
Hurlik uchirgan qushlar yurt shoxiga qo'narkan.

Vohki! Ko'nglim shu damda buncha buniyod ko'ringay,
Ko'zim yumib qarasam, bundan Hirot ko'ringay,
Ko'zim ochib qarasam, mangu ijod ko'ringay,
Ko'zim uzmay tikilsam, shunday ajdod ko'ringay,
Ko'zyosh bilan qarasam, Puli Sirot ko'ringay,
Bobo! Ko'zlarim yondi — ko'ngil shunday to'larkan,
Bundagi har navnihol chinordan bo'y olarkan,
O'zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.

Navoiy vasf etgan ayol

Telegram tarmog'ida "Ma'rifat" gazetasining muxbirlari va mushtariylari bilan muloqot qilishga mo'ljallangan "Ma'rifat" mushtariylari guruhi bor. Guruhda qizg'in munozaralar bo'lib turadi. Bu maqolani yozishimga aynan shunday munozaralardan biri sabab bo'ldi. Bahs Navoiyga behi jo'natgan ayol haqida edi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga xos ajoyib an'ana bor. Dostonlarning odatta, so'nggi boblari Navoiy o'zi uchun aziz deb bilgan shaxslar yoxud joylar ta rifiyu tafsiga bag'ishlangan. "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"ning 19-maqolotida Hirot va Xurosom madhi keltirilgan.

Mualif tomonidan "Shayq dostoni" deb nomlangan, mutaxassislar tomonidan sargusasht tipidagi asarlarning o'zbek adabiyotidagi eng birinchi namunasi deb qaralayotgan ikkinchi doston "Farhod va Shirin"ning 53-bobi Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib mirzoning madhiga bag'ishlangan. Navoiy faqatgina madh etish bilan cheklanib qolmay, unga bir necha maslahatlar beradi.

Muhabbat haqida bitilgan qissalarning eng g'amlisi uchinchini doston "Layli va Majnum"da Sulton Husayn Boyqaro madhi (7-bob) va Badiuzzamon mirzo (8-bob) madhi beriladi.

Ko'plab qiziqarli sujetlarga boy to'rtinchini doston "Sab'ayi sayyor"da Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadichabegim madhi keltiriladi. Navoiy

an'anadan biroz chetlashgandek bo'ladi. Boisi, bag'ishlov boblar dostonlarning oxirida joylashgan. "Sab'ayi sayyor"da esa avvalgi boblardan biri, ya'ni 10-bobdan o'rinn olgan.

"Xamsa"ning so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" esa (84-bob) Husayn Boyqaro va shahzodalar madhiga bag'ishlangan bob bor.

Ko'rib turganimizdek, "Xamsa" dostonlarining faqat bittasida ayol madhi berilgan. Bob shunday nomlanadi: "Ismat baboristonining shukufa bog'i va iffat shabistonining gavhari shabcharog'i, ro'po'shlig' Qofining asmoysi paris, mah-jublig' siyehrining mehri xovariysi, axloqi hamda va asofi pisandasidin shammayi izhor qilmog'" (Tabdili: Poklik baborining ochilgan bog'i va iffat kechasingin chiroq kabi yoritadigan gavhari, hayo Qofining pari ismisi, o'ralgan, pardalangan falak quyoshining yoqimli sifatlaridan aytib o'tmoq).

Navoiy Xadichabegimni ta'riflar ekan talmeh san'ati vositasida kutilmagan tashbehtar yaratadi. Shunday baytlardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

Ham Sulaymoni ahdg'a hamdam,
Hamdamu hamnishin-u munis ham.

Baytda Sulaymoni ahd deganda Husayn Boyqaro nazarda tutilib, Xadichabegimning unga do'st, hamsuhbat, doimo birga yuruvchi kishi ekanligi aytib o'tilgan.

Chin Sulaymong'a yor erur ne ajab,
Anga Bilqisi soniy o'lsa laqab.

Bilqis — Sulaymon payg'ambarning suyukli xotini. Navoiy Xadichabegimmi "Bilqisi yoxasi (ikkinci Bilqis)" deb ta'riflamoqda. Keyingi baytlarda Sorayi Uzmo, Xadichayi Kubro degan ta'riflarini ham keltiradi.

Oy-u kun yo'q agarchi monanding,
Ikki sa'd daxtar ikki farzanding.

Navoiy ikki sa'd daxtar (baxt yulduzi) deganda uning ikki o'g'li Muzaffar mirzo va Shoh G'arib mirzoga ishora qiladi. Shu o'rinda Alisher Navoiyning "Badoye ulbidoya" devonida Xadichabegimga atalgan maxsus g'azal borligi ham diqqatga sazovordir.

Behi rangidek o'lmissi dardi
hajringdin manga siymo,
Dimog'im ichra har bir tuxmi
yanglig' donayi savdo.

Mazallat tufrog'i sorig'
yuzumda bordur andoqkim,
Behida gard o'turg'on masallik
tuk bo'lur paydo.

Oqartib ishq boshimni,
nihon bo'ldi sarig' chehram,
Qomug' ichra behini
chirmag' on yanglig' kishi umdo.

Yuzimda tiyg' i'hajring zaxmi
har sori erur bevajih,
Behini tiyg' itta chun qat'

qilmoq rasm emas qat'o.

Yuzum tufrog'dadur har dam
qurug'on jism ranjidin,
Behiga sarnigunlik shoxi

za'fidin bo'lur go'yo.

Bu gulshan ichra behbud
istagan doim behi yanglig'
Kiyib pashminayi toat qadin
ham asramoq avlo.

Navoiy gar quyosh noranjidan
behruk ko'rар, tong yo'q,
Behikim lutf' qilmish mahdi
ulyo ismatud-dunyo

Navoiy ushbu g'azalda o'zi bemor bo'lib qolganida (matla'dan shunday mazmun anglashiladi), Xadichabegimning behi jo'natgani haqida aytadi. Behi sharq tabobatida uzoq umr ko'rish, salomatlik ramzi. Behi rangi sarig'ligi esa bemorligi kini bildiradi. Navoiy har ikki jihatdan o'ta qilona foydalangan.

G'azalning maqta'sida esa "behilutif qilgan ayol"ni "mahdi ulyo", "ismatud-dunyo" sifatlari bilan ta'riffaydi. Demak, Navoiyga behi jo'natgan ayol, bu Husayn Boyqaroning suyukli ayoli Xadichabegim ekan.

Gulnoza XOLDOROVA,
NamDU magistranti

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4539, Tiraj 9115.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxa.

TELEFONLAR:
qabulxonasi — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsat bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qillinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Fazriddin Rahimov.
Navbati muharrir: Humoyun Qonqvoldiqov.
Navbati: Fazriddin Rahimov.

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Marifat